

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



МЕНДЕЛЕЕВ ДМИТРИЙ ИВАНОВИЧ
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 71 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Jurabekova Sevara Normaxammatovna «O'QUVCHI – YOSHLAR O'RTASIDA SUITSID HOLATLARINI OLDINI OLISH VA KORREKSIYA QILISH»	8
2. Ma'murova Jamila Abdiraximovna BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	10
3. Pulatova Dilobar Ibragimovna ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF ETISH	12
4. Rahmonova Muhayyo Ne'matjon qizi YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING SAMARALI OMILLARI	14
5. Soqiyeva Gulxayoxon Muzaffar qizi O'SMIR BOLALARNING O'TISH DAVRIDAGI ASOSIY TENDENSIYALARI.....	15
6. Yakubova Zuxra Ismanaliyevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH	17
7. Allanazarova Mamura INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE.....	18
8. Химматалиев Дўстназар Омонович, Эрназарова Мунистон Жўракуловна БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ОШИРИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	20
9. Ibadullayeva Ozoda Rustamovna MOTIVATION IN LEARNING ENGLISH LANGUAGE.....	23
10. Imomova Zilola Ortiqovna BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKILLASH ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH	25
11. Jumanova Nasiba Babajonovna MATEMATIKA DARSLAR SMARODRLIGINI OSHIRUVCHI OMILLAR	27
12. Mamitaliyeva Marjonaxon Iqboljon qizi BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION MASHQLAR	29
13. Ataxonova Sohiba Dadaxonovna, Gofirjon Raximjanovich Abdullayev TURLI TEMPERAMENTDAGI SHAXSLARDA STRESS TA'SIRIDA YURAK QON TOMIRIDAGI O'ZGARISHLAR	31
14. Matniyozova Sanobar Azatovna BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI.....	33
15. Nurmetova Mavlyuda Axmedovna MATEMATIKANI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARI.....	34
16. Olimova Muqaddam O'rinovna MATEMATIKA O'QITISHNI TASHKIL QILISHNING DARSDAN TASHQARI SHAKLLARI	36
17. Qo'chqarov Sherzod, Qo'chqarov Bekzod , Nurjonova Gulnoza SURUNKALI SOMATIK KASALLIKLARDA O'SMIRLAR XAYOT SIFATINING PSIXOLOGIK OMILLARI.....	37
18. Hakimova Ra'no Maxmudovna, Mirzaulikova Feruza Mirzahamdamovna MAKTABDA SAMARALI O'QITISH TIZIMINI YARATISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING AHAMIYATI	40
19. Ruzmetova Dilnoza Shavkatovna, Ismoilova Bibirajab Baxtiyarovna INGLIZ TILIDA SHAXSIYLASHTIRILGAN NOMINATIONS SHAKLLANISHNING ASOSIY KOGNITIV MEXANIZMLARI.....	42

20. Uralov Sirojiddin Axmadaliyevich PROFESSIONAL TA'LIMDA SIMULYATSIYALARDAN FOYDALANISH	44
21. Shodiyeva Dilfuza Shukurovna KIMYONI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.....	46
22. To'rayev Jo'rabek Nurbek o'g'li BIR QIYMATLI MOSLIK O'YINI.....	47
23. Umirzaqova Nargiza Ne'matilloevna BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA SALOMATLIKNI TEJAYDIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	49
24. Xolmurotova Xafiza Yaxshimurotovna O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING BOSHQA O'QUV PREDMETLARI BILAN BOG'LIQLIGI.....	51
25. Yusupova Xavajon MATEMATIKANI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI	52
26. Олимова Машхура Шухратовна ГЛОБАЛ АХБОРОТ МУҲИТИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ЎРНИ.....	54
27. Ҳамдамова Манзура Зувайдиллаевна МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИ КИТОБХОНЛИККА ҚИЗИҚТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ.....	56
28. Ro'zimova Gulora Alimbayevna O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH	61
29. Murotov Baxtiyor Kenjayevich, Qurbondurdiyev Maqsudbek Faxriddin o'g'li JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA SPORTNING O'YINLARINING O'RNI.....	63
30. Jumamurotova Iroda Buvaxonovna ZAMONAVIY OILANI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUHITNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	65
31. Hotamova Gulbahor Abduvahobovna UYGA VAZIFALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNI MATEMATIKA FANIGA QIZIQTIRISHNING METODIK JIHATLARI.....	67
32. Jabbarova Moxichexra BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH.....	69



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

«О‘QUVCHI – YOSHLAR O‘RTASIDA SUITSID HOLATLARINI OLDINI OLISH VA KORREKSIYA QILISH»

Jurabekova Sevara Normaxammatovna

Angren shahar 13-umumiy o‘rta ta’lim

maktabi amaliyotchi psixologi

Tel: +99894 366-25-23

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchi – yoshlar o‘rtasida suitsid xolatlarini oldini olish va korreksion mashqlar misol qilib keltilgan, bu mashqlar va tavsiyalar bugungi kunda dolzarb bo‘lgan o‘z joniga qasd qilish xolatlarini kamayishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. ob‘ektiv va sub‘ektiv, shaxsiy fazilat, rituali, suitsid, emotsiya.

Bugungi kunda dolzarb muammolar qatorida o‘z joniga qasd qilish muammosi jahon mutaxassislari tomonidan chuqur o‘rganilmoqda. Tan olish kerak-ki, ayrim ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablar tufayli keng ommaga o‘z joniga suiqasd qilish holatlarining statistik ma’lumotlari yoritilmaydi. Biroq bu muammo tobora ommalashib va hattoki «yosharib» borishi barcha mutaxassislarni o‘ziga jalb etmoqda. O‘smir yoshidagi o‘g‘il - qizlarni tarbiyalashda Zamonaviy kadrlar oldiga qo‘yiladigan eng muxim vazifalardan biri malakali mutaxassislarning sifatida o‘zligini, o‘z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatini bilgan tarzda atrofdagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning boshqa sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko‘rsatishdir. O‘spirinlarning o‘z joniga qasd qilishi, bu qo‘rqinchli fojeadir. Ularning bu dunyodan hammaning ko‘ngli qolib, nafrat bilan ketishi yanada qo‘rqinchlidir.

O‘zga dunyoga ular uylarining tomlaridan, chardoq va og‘ilxonalar shiftlaridan bo‘yinlaridagi sirtmoq bilan ketishmokda. Ular qaytish umidi bilan umrbod ketishmokda. Ular «kimni yo‘qotganliklarini bilib qo‘yishsin» degan maqsadda kattalarni yoki sevgan insonlarining diqqatini o‘zlariga qaratishga urinishadi. Ammo bolalar o‘lim, bu hayotning tugashi ekanligini oxirigacha anglab yetmaydilar. Ularning hayollarida g‘olibona o‘rinlarda turishsa-yu, yashashni davom ettirishsa. Lekin bu taxmin ular istagandek bo‘lib chiqmaydi.

Bu o‘rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya fanining o‘rni va roli benihoyat kattadir. Suitsid (lot. sui caedere – o‘zini o‘ldirish) – maqsadli ravishda o‘zini hayotdan mahrum qilish, odatda, ixtiyoriy va mustaqil ravishda o‘z joniga qasd qilish. O‘z joniga qasd qilish holatlariga nisbatan jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida va turli madaniyatlarda o‘zgacha munosabat bo‘lganligi kuzatiladi. Bular:

- qasd qilish marosimi (rituali);
- or-nomus uchun diniy (qurbonlik);
- juftlar orasidagi sadoqatni isbotlash;
- yaqin kishisini yo‘qotish;
- odatiy sotsial statusni yo‘qotish;
- kasbiy muvafaqqiyatsizlik;
- kasalliklarga xos emotsiyalarga chidamsizlik va boshqa sabablar.

Suitsidga mukammal ta’rifni fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym bergan. Uning talqini bo‘yicha, shaxs tomonidan o‘zini kutayotgan natija haqida bila turib, sodir qilingan salbiy xatti-harakatning bevosita yoki bilvosita natijasi bo‘lmish har bir o‘lim holati o‘z joniga qasd qilishdir.

O‘z joniga qasd qilishga ko‘pincha uzoq davom etadigan kasallik, ba’zan esa nogironlik ham sabab bo‘lishi mumkin.



Suitsidga sabab bo‘luvchi asosiy ijtimoiy omillar:

- parasuitsid (avval amalga oshmagan suitsid ta’sirida ikkilamchi suitsidni amalga oshirish);
- suitsidial tahdid-lar ta’siriga tushish;
- oilada suitsid hola-ti qayd etilganlar;
- autoagressiya;
- alkogolli ichimliklarni iste’mol qiluvchi shaxslar (jami suitsidlarning 30 foiz);
- narkogen va toksik moddalarni iste’mol qiluvchilar (alkogol va narkogen moddalarni surunkali iste’mol qilish depressiya, tushkunlik, o‘zini gunohkor his etish kayfiyatini keltirib chiqaradi, yashashga bo‘lgan motivatsiyani pasaytiradi.);
- og‘ir depressiyaga chalinganlar;
- xronik va letal oqibatli (tuzalishiga umid yo‘q bo‘lgan holatlarda) kasalliklar; og‘ir yo‘qotishlarni (o‘z yaqinidan, yaxshi ko‘rganidan mahrum bo‘lish va boshidan kechirganlar);
- oiladagi turli muammolar (zo‘ravonliklar, mojarolar, ajralishlar va o‘smirlar suiqasdi deb ataladigan holat yoki tibbiyot tili bilan aytganda, jinsiy balog‘at davridagi suitsid).

Stress (asabiylik, kuchli hayajon) holati bu – xavfli aqliy va fiziologik zo‘riqish bo‘lib, bunda insondagi mavjud barcha ruhiy jarayonlarning tormozlanishi ro‘y beradi. Ya’ni stress holatidagi inson yomon eshitadi, yaxshi ko‘rmaydi, sezgirliги zaiflashadi, xatti-harakatlarining natijasini to‘liq anglab etmaydi, tushunib bo‘lmaydigan tushkun ruhiy holatga tushadi.

Suitsid muammosi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, inson hayotidagi eng xota qaror hisoblanadi. Suitsid muammosining uzoq yillar davomida yopiqliги ta’lim-tarbiya jarayoni mutasaddi xodimlarining o‘smirlardagi suitsidal faollik bilan bog‘liq inqirozli vaziyatlarda zarur pedagogik-psixologik yordamni ko‘rsata olmasliklariga sabab bo‘ldi. Suitsidal urinishlar sodir etgan o‘smirlarda shaxslilik va emotsional jabha buzilishlari kuzatiladi. Suitsident o‘smirlar shaxsining motivatsion-ehtiyoj sohasini tahlil etish, sodir bo‘layotgan suitsid hodisalarini tushunishda zarur va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Suitsidal urinishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan, oiladagi va shaxslararo munosabatlardagi nizoli vaziyatlar, shaxsiy qadriyatlarni etarlicha his qila olmaslik, o‘zini-o‘zi nazorat qilish hamda baholashdagi noadekvatlik hisoblanib, ulardagi dolzarb ehtiyojlarning qondirilishiga to‘sqinlikning asosiy omillaridan biri hisoblanib, korreksion tadbirlarni amalga oshirishda kompleks yondashuvni talab etadi. O‘smirlarda o‘z-o‘zini namoyon eta olish imkoniyatlarini topishga yordam berish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirish, istiqbolli maqsadlarga intilish motivatsiyasini shakllantirish, korreksion tadbirlarni rejalashtirishning maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M ‘Ijtimoiy psixologiya asoslari’ Toshkent. O‘q. 1994 yil
2. E. Goziev “Psixologiya muommolari” Toshkent. O‘q. 1999 yil



BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ma'murova Jamila Abdiraximovna

Toshkent viloyati Parkent tumani

38-o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy metodlar hamda ta'limdagi texnologik jarayonlar haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar: Texnologik jarayon, Texnologik operatsiya, Texnologik xarita, Texnologik xarita, Texnologik rejim

Ishlab chiqarishda texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita- ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta'rif va tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chirish quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshirdi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum —material— bilan ish ko'radi. Biroq Pedagogik Texnologiyalar inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari –tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana



yangi qadamlar qo'yiladi.

Hozirgi davr ta'lim nazariyasida pedagogik texnologiya tushunchasiga keng urg'u berilmoqda. Pedagogik texnologiyaning mazmuni o'qituvchi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy, axloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iboratdir

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Xulosa aytganda, pedagogik texnologiyalarni muntazam qo'llash o'qitish samarasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.- T., 1999, 16 b
2. Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999, st.3.



ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF ETISH

Pulatova Dilobar Ibragimovna

Toshkent shahar Yunusobod tumani

560-sonli Davlat ko'p tarmoqli

ixtisoslashtirilgan MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarning bilish faoliyatining buzilishlari natijasida nutqidagi nuqsonlari hamda aqli zaif bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlari: aqli zaif, nutq nuqsonlari, logoped, korreksion ishlar.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati — ularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomalialarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratalishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda yoki me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori va agarda kerak bo'lsa, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur.

Aqli zaif bolalarda nutq buzilishi va ularni me'yorga keltirish xususiyati oliy nerv (asab) faoliyati hamda psixik rivojlanishning o'ziga xos tomonlari bilan belgilanadi.

Aqli zaif bolalarda nutq rivojlanmasligining sababi miya po'stlog'i faoliyatining zaifligi, barcha analizatorlarda yangi differensial aloqalarning sekinlik bilan ishlab chiqilishidadir. Nutqiy eshitish analizatorlari doirasida differensial shartli aloqalarning asta rivojlanishi munosabati bilan aqli zaif bola ancha vaqt nutq tovushlarini ajrata olmaydi, atrofdagilar aytgan so'zlarini aniq anglamaydi.

Aqli zaif bolalarda tovush talaffuz buzilishini to'g'rilash, normal rivojlangan bolalarga nisbatan ancha uzoq davom etadigan jarayondir. Ular bilan olib boriladigan ish shartli refleks aloqalari hosil bo'lishining qiyinligi tufayli, yangi tovush shakllanishining sekinlashishi va uzoq davom etishini keltirib chiqaradi. Asab (nerv) jarayonining sekinlashish va asabiy kuchayishning o'ta buzilishi, eski-oddiy aloqalardan yangilariga o'tishdagi bir xillikni ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Buning natijasida u yoki bu tovushni noto'g'ri talaffuz qilish uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarni to'g'rilashni aqli zaif bolalarning idrok qilish faoliyatining rivojlanishi bilan bog'lash, qiyoslash, analiz va sintezning harakatlari bilan bog'lash lozim. To'g'ri talaffuzdagi buzilishlarni to'g'rilashdagi logopedik ishlarda qiyoslash usulini keng qo'llaniladi. Masalan, tovushni to'g'rilash bosqichida to'g'ri va noto'g'ri talaffuz qiyoslanadi. Avtomatizatsiya bosqichida shu tovushning o'zi fonetik jihatdan bir-biridan uzoq bo'lgan tovushlar bilan qiyoslanadi. Korreksiya (to'g'rilash) jarayonida tovush miqdoriga nisbatan turli so'zlarning tovush tuzilishi qiyoslanadi. Asosiy diqqat-e'tibor umumiy va nutqiy materialning rivojlantirilishiga, eshitish qobiliyatining, xotiraning shakllantirilishiga, ya'ni aqli zaif bo'lgan bolalardagi talaffuz qilish buzilishlarining barcha sabablarini normallashtirishga qaratiladi. Talaffuzdagi buzilishlarning korreksiyasida diqqat-e'tibor so'zning tovush tarkibi haqidagi aniq tasavvurga ega bo'lishga, so'zdagi tovushni ajrata bilishga, nutq tovushlarning ma'no bildiruvchi vazifalarini aniqlashga qaratiladi.

Bola nutqini rivojlantirish hodisasining o'zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari zarur. Aqli zaif o'quvchilarda talaffuz buzilishlarini to'g'rilash davrida ulardagi psixik jarayon kechishining o'ziga xos tomonlarini hisobga olish zarur (tempning sekinlashishi, diqqat-e'tiborni bir joyga yig'a olmaslik va boshqalar). Maxsus maktabgacha ta'lim tizimida talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan logopedik ishlarning o'ziga xos tomonlaridan yana biri ishni yakka tartiblashtirish hisoblanadi. O'ziga xoslik rejalashtirishda ham o'z aksini topadi. Normal bola uchun qiyinchilik tug'dirmaydigan harqanday



masala, maxsus maktabgacha ta’limda iloji boricha oddiylashtirilishi lozim. Logoped bu o’ziga xoslikni talaffuzdagi kamchiliklarni to’g’rilashdagi ishning har bir bosqichida hisobga olishi darkor. Bundan tashqari ota-onalar bilan ishlash, mustahkam aloqa o’rnatish, logoped tomonidan berilgan topshiriqlarni uyda takrorlanishiga e’tibor qaratish ishlari ham to’g’ri tashkillashtirilishi kerak. Logoped ish faoliyatida didaktik o’yinlar, harakatli o’yinlar, so’z o’yinlaridan unumli foydalanish, xalq og’zaki ijodi namunalarini ish faoliyatida unumli qo’llash ham bolalar nutqini rivojlanishiga samarali yordam beradi. Bolalar nutqini rivojlantirish ko’p jihatdan quyidagi narsalarning to’g’ri hal etilishiga bog’liq:

–*nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar (tarbiyachi va ota-onalarning ma’lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o’qib yoki aytib beriladigan ertaklar, qo’shiqlar, hikoyalar);*

–*ta’limni tashkil etish (tevarak-atrof obyektlarini saralash, shunga bog’liq nutq o’stirishni rejalashtirish);*

–*o’quv materialining mazmuni, uni o’rganishning ayrim usullari hamda ularga tegishli tamoyillarga tayanib, tarbiyachi nutq o’stirish bilan bog’liq bo’lgan barcha ishlarni rejalashtirmog’i zarur.*

Xulosa qilib shuni qilib aytishimiz mumkinki, rivojlanishida kamchiligi bo’lgan bolalarni tarbiyalashda uning nutqiy tarbiyasi, ulardagi mavjud nutq nuqsonlarni bartaraf etish korreksion ta’limning asosiy diqqat markazida bo’lish bilan birga, boshqa korreksion yo’nalishdagi ishlarning barchasi bilan aloqadorlikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Babayeva D.R. Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi. – T.: 2018
2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: 2017
3. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o’stirish. –T.:2001



YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING SAMARALI OMILLARI

Rahmonova Muhayyo Ne‘matjon qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi
Amaliyot va kasbiy rivojlantirish bo‘limi uslubchisi

Annotatsiya: maqolada yoshlarni kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirishning samarali omillari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: yoshlar, kasb-hunar, mehnat, ijodkorlik, texnologik ta‘lim.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida asosiy bo‘g‘in hisoblangan yoshlarni kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘liq emas, u ma‘lum yoshga kelib o‘z o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta‘siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Shuning uchun ham yoshlarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish lozim.

O‘sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o‘z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkonini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan yoshlarni muayyan kasb-hunar sirlarini egallashga o‘rgatish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasbni to‘g‘ri tanlash mehnat va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko‘rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayoni va uning natijalaridan qoniqish esa, shaxsda ijodkorlik, hissiy ko‘tarinkilik va jamiyat hayotida farovonlikni ta‘minlashga ko‘maklashadi.

Shu jihatdan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda tuman va qishloq bitiruvchilarini mustaqil amaliy mashg‘ulotlarni o‘rganishi va qo‘llay olishlari uchun hududlariga yaqin bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalariga tashrif buyurib, u yerdagi kasb-hunarlar bilan yaqinda tanishishlari uchun imkoniyatlar yaratish o‘sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o‘z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkonini yaratadi.

Kasb tanlash uchun yoshlar o‘z imkoniyatlarini baholay olish ko‘nikmasiga, ya‘ni qiziqishi mos kasblar bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot va yangiliklardan xabardor bo‘lishi zarur. Yoshlarni kasbiy qarorlarini shakllantirish-bu yoshlarga o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga malakali mutaxassislar ko‘magida kasbga bo‘lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo‘llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokozalar)ni tarbiyalashga yo‘naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o‘quvchilarni kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo‘lib, uni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi ko‘zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yoshlar o‘rtasida kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra texnologik bg‘lishi lozim. Chunki, muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatning yaxlit jarayoni to‘g‘risida oldindan to‘laqonli ma‘lumotga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishni tashkil etishda yoshlar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni nazariy va amaliy ko‘nikma hamda malakaga aylantirish, ularga faol kasbiy yo‘naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va layoqatlari asosida kasbiy qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonini tashkil qilish kerak. Yoshlarga ta‘lim –tarbiya beruvchi o‘qituvchi, ustoz, murabbiy, mutaxassis, rahbar nafaqat bilimdon, balki eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar sohibi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: 1995
2. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: 2003



O'SMIR BOLALARNING O'TISH DAVRIDAGI ASOSIY TENDENSIYALARI

Soqiyeva Gulxayoxon Muzaffar qizi

Oltiariq tumani, 16-maktab psixologi

+99891124-54-94

Annotatsiya: ushbu maqolada o'smirlik yoshidagi bolalarning o'tish davrisa yuz beradagidan o'zgarishlarning asosiy tendensiyalari haqida fikr yuritilgan. Unda keltirilgan faktlar mashhur psixologlarning kuzatishlari, fikr-mulohazalari asosida tahlil qilinib yozildi.

Kalit so'zlar: o'smirlik, bola, ota-ona, tendensiya, oilaviy munosabat.

O'smirlik - bu bolalar uchun ham, ota-onalar uchun ham sinov.

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.¹ Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarini. O'smir o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.²

Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar yuzaga keladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabatining jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoiti bilan bog'liqdir.

Psixologlar o'smirlik davrining “yosharishi” tendentsiyasini uzoq vaqtdan beri qayd etishgan. Nima uchun bu davr o'tish davri deb ataladi? Chunki bolaning rivojlanishida bolalikdan kattalikka o'tish sodir bo'ladi, o'smirning asosiy vazifasi o'zini anglash va ota-onasidan ajralib turish hisoblanadi.³

Nima uchun bolalarga bu davr qiyin o'tadi?

- ular tashqi va ichki jihatdan o'zgaradi, ba'zida ular uchun bu o'zgarishlarni qabul qilish va ularni nazorat qilish qiyin;

- ular jamiyatda qabul qilinishni, o'zlarini muhim his qilishni xohlashadi. Buning o'rniga, ular masxara qilishlari, tengdoshlarining tajovuzkorligi yoki zo'rvonlik qurboni bo'lishlari mumkin;

- Ular ota-onalardan tushunishni va ularning barcha xislatlarini qabul qilishni kutishadi. Buning o'rniga ular to'liq nazorat, tanqid va taqiqlarga duch kelishadi;

- Ular mustaqillik va mustaqillikni xohlaydilar, lekin bunga erisha olmaydilar, chunki ular hali o'z harakatlari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmlariga olmaganlar.

Nima uchun ota-onalarga qiyin?

- ular katta yoshdagi bolalar bilan qanday munosabatda bo'lishni bilishmaydi;

- farzanlari uchun avtoritet bo'lishga odatlanganlar;

- o'g'li yoki qizini katta hayotga qo'yib yuborishga tayyor emasligi.

Mana shu paytda endi ikkita tendensiya yuzaga chiqadi:

1) Erta ulg'ayish, oila qurishni istamaslik tendentsiyasi. Ushbu ko'rsatkich bilan barcha sohalarida o'z hayotiga nisbatan mas'uliyat ham pasayadi. Moliyaviy mustaqillikning boshlanishi uchun kattalarga yarim qaramlikka olib keladi. Bu yerda ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyat yuzaga keladi. O'smirlar, bir tomondan, mustaqillikka intiladilar va ular tabiat tomonidan belgilab qo'yilgan gormonal rivojlanishga asoslanib, o'zlarining barcha harakatlari bilan buni ko'rsatadilar.⁴ Boshqa tomondan esa, ongsiz ravishda o'smirlarning o'zlari kattalikka o'tishni sekinlashtiradilar, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni xohlashmaydi.

2) Ikkinchi tendensiya - dunyoni o'zgartirish istagi. Bunday bolalar ko'payib bormoqda. Ular katta bo'lib tug'ilishadi va ular uchun fiziologik yetuklikning barcha darajalarini olib kelish juda

1 Переходный Возраст. Екатирина Гаврилина. Москва. Самиздат. 2021. С. 47.

2 <https://hozir.org/download/osmirlik-davrining-psixologik-xususiyatlari-reja.doc>

3 Переходный возраст. Не упустите момент. Перевод Юлия Костантинова. Манн, Иванов и Фербер. 2017. С. 140

4 <https://findmykids.org/blog/ru/podrostkovyj-period>



qiyin - ular tezroq o'sishni xohlashadi va o'zlarining xarakteridagi barcha o'spirinlik xususiyatlariga e'tibor bermasdan, biror narsa qilish uchun o'z maqsadlarini amalga oshirishga intiladilar.¹ Ular nimani xohlashlarini, qayergacha borish mumkinligini bilishadi va dunyoni o'rganish bilan band bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Переходный Возраст. Екатирина Гаврилина. Москва. Самиздат. 2021. С. 256
2. Переходный возраст. Не упустите момент. Перевод Юлия Костантинова. Манн, Иванов и Фербер. 2017. С. 351
3. Age of Opportunity: Lessons from the New Science of Adolescence. Laurence D. Steinberg. Houghton Mifflin Harcourt, 2014. P. 147.
4. <https://findmykids.org/blog/ru/podrostkovyj-period>
5. <https://hozir.org/download/osmirlik-davrining-psixologik-xususiyatlari-reja.doc>

¹ Age of Opportunity: Lessons from the New Science of Adolescence. [Laurence D. Steinberg](#) Houghton Mifflin Harcourt, 2014. P. 34.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH

Yakubova Zuxra Ismanaliyevna

Angren shahar XTBga qarashli 43-sonli

IDUMning I-toifali boshlang'ich sinf

o'qituvchisi Tel: +99894 937 72 69

Annotatsiya. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarini tashkil etish va uslubiy yordam berish.

Kalit so'zlar: O'qish darslari, materiallar, tez, ravon, nutq o'stirish, so'z.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi. O'qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o'qituvchi asosan quyidagilarga e'tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo'ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyil harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglay olmaydilar.

Shu tugayli bu sinflarda ta'lim-tarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi. Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. To'g'ri o'qish. Birinchi sinfda jiddiy ahamiyat berish talab qilinadi. Har bir so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, eshitarli, talaffuz etilishiga erishish lozim.

2. Ongli o'qish. O'quvchi har bir gap, gapdagi so'z, so'zdagi bo'g'inlarni o'qish jarayonida uning ma'nosini tushunib o'qishi kerak.

3. Tez va ravon o'qish. Sekin yoki juda tez o'qish emas, balki gapirganday, o'rtacha tezlik sur'atiga amal qilinib, ham to'g'ri, ham ongli, ham sidirig'asiga ravon o'qishni ta'minlash zarur.

Agar o'quvchi, labi labiga tegmay, haddan tashqari tez yoki aksincha sekin, tutilib o'qisa ko'r - ko'rona, ma'nosiga tushunmay qolishi mumkin. O'rtacha tezlikda o'qishga o'quvchi harf tovushlarni o'rganayotgan vaqtdan boshlab asos yaratiladi. Biroq dastlabki o'rinda to'g'ri va ongli o'qish jarayonidagi o'rtacha tezlik darajasiga erishiladi.

To'g'ri o'qishga o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qish. Masalan: "Fazliddin" Faz-lid-din, ro'z-no-ma. Shuningdek, buzib o'qigan ayrim so'zlarni to'g'ri o'qiy olmasa uni bo'g'in tovushlarga bo'lib o'qigan ayrim so'zlarni ovoz chiqarib takror o'qish. Tez aytish ham ancha foydali usullardan hisoblanadi. Ongli o'qishga o'rgatish uchun notanish so'zlarga izoh berish, matn yuzasidan berilgan savol topshiriqlarni o'rgatish matn yuzasidan savollar tuzish, reja asosida matn mazmunini qisqartirib, kengaytirib so'zlash usullari ham muhim yordam beradi.

Ravon o'qishda matndagi tinish belgilariga amal qilinishi lozim. Ifodali o'qishga o'rgatishning eng muhim usullaridan biri o'qituvchining namunali ifodali o'qishidir. Buning uchun o'qituvchi o'qitishning pauza, urg'u, ohangi, sur'at kabi texnik-nazariy vositalari haqida yetarli bilim mahoratga ega bo'lishi, og'zaki nutq madaniyatini puxta egallashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N. Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalari. – T., "Moliya", 2003.
2. T. G'afforova va boshqalar "O'qish kitobi", 1-sinf, – T., "Sharq", 2013.
3. T. G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", T., "Tafakkur", 2011-yil.



INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Allanazarova Mamura

Specialized Branch of Tashkent State University of Law
Department of “General Education Disciplines”
m.akhmedovna@mail.ru

Annotation: English, the official language of the entire world is a very tricky language to teach. In fact every language varies to teach. English is a very old language and has undergone many forms changes from Proto English derived from the Latin and the German culture to the Modern English which was established after in the post Renaissance period. Each version was simpler than it is previous. Present day English is the simplest adaptation of a very old Language and yet it is still difficult to teach this language effectively especially to those who speak English as a second language.

Key words: language, teaching, essential, methods, linguistic, culture, conversation, inquisitive nature

In today's world English is taught in a very orthodox manner. Teaching the alphabets and the formation of the words is essential and a must. But there is something that is even more important. The children must be able to speak the words and understand their meaning before writing them down. The foundation to teach English can only be taught using the orthodox methods of teaching the alphabets and the words and the rules. But then teaching only the rules is found to be boring by most students and it is because of this that they lose interest in learning the language.

When it comes to teaching English to students of higher classes who already know the basics the traditional methods generally tend to yield poorer results than innovative methods. This has already been proven by methods implemented like use of stories, poems, movies, books and newspapers etc. These methods help the students learn the language better without them actually realizing and also it keeps their interest. This paper will provide a few of such methods to teach English Language.

Stories form a very integral part of teaching a language. These stories help teach the students about the formation of sentences and how to express their thoughts and a lot of other things and plus they help in keeping the students interest alive as the story's end is something that every student wants to know. It appeals to the inquisitive nature of the students. Any unfinished story always keeps the mind of the reader agitated. Although this method of using stories has been implemented the procedure of teaching the language through it is generally not right. The evaluation procedure of testing the students in their proficiency over the language is through questions based on the story. This is generally not that effective. Due to this the students generally tend to take up the stories as a chapter rather than looking at it as an interesting read. There is a better way of using the stories to English using stories. The students can enact the stories or the plays. In this way the students are personally engaged with the stories. They can bring their own interpretation of the character to life. It is interesting for the students to understand the characters and put themselves in their positions. It engages their creativity by allowing them to create the entire set, assign the characters and play it out according to what they had imagined. It also helps them understand other people's interpretation of the story and helps them have a healthy conversation about it which again helps them in learning the language. It removes the dull aspects and makes the learning more colorful without jeopardizing the learning of the language. The story will help them learn the language as they will be enacting it by dialog which they will themselves extract from the stories and also modifications can be made to the plays to help the students be more interactive and creative. The more creative the modification, more are the points awarded to the team. This also leads to personality development and helps them work as a team player and all the way the student was learning the language. This entire process has many benefits besides being a very effective method of teaching the language; it helps preserve the literature, which is nothing but our culture.

Conversations are by far the most useful ways of teaching the language. When a child learns his or her mother tongue it is by the conversations that takes place between them and others or by listening to the conversations made by the others. The child is never taught the language but is still able to percept the meaning and learns it automatically to use it in day to day life. The conversations



alone teach the children. Hence conversations form a very important part of the teaching process.

That can only happen through a lot of reading and a lot of listening. This can be taken care of easily as every conversation needs a topic. The topic can be given to the students in form of written documents which they have to first read then form an opinion and then have a conversation about it or it can be spoken out and then they can listen, understand and also take part in the conversation. The participation and other aspects of the conversation can always be evaluated through points which will also push the students to take part in the conversation. These conversations have to be general. This process may take some time but in the end it would be the most efficient one in teaching the language. This is a very interesting method of teaching.

Students and children generally tend to like games and want to play them more and more. Traditional methods dictated for study and games to be separate but the fact remains that the students tend to be more interested in playing games rather than sitting down to study. Any logical reasoning would dictate us to combine the two aspects to solve the problem. The games part of learning would help the students keep their interest as the desire to win is very strong. It keeps us going and when included with different aspects of learning the learning process would continue almost throughout the day without the children getting tired or bored of studying.

Since English is the official language of this world it is of utmost importance that this language has to be taught in such a way that it will help us not just to speak and write and listen but to communicate. That is the purpose of the language and that is what it must be used for. It helps the students learn faster and in an efficient, interesting and an interactive manner and it is the teacher's responsibility to leave the traditional methods and make way for new and better methods for the students benefit.

References

1. Kevin D. Besnoy, Lane W. Clarke, High-Tech Teaching Success! A Stepby-Step Guide to Using Innovative Technology in Your Classroom, Prufrock Press, Inc. October 1, 2009
2. Lynne T. Diaz-Rico, Teaching English Learners: Strategies and Methods Marlene D. LeFever, Creative Teaching Methods, Cook Ministry Resources; March 1, 1997
3. Edgar H. Schuster, Edgar H. Schuster, Breaking the Rules: Liberating Writers Through Innovative Grammar Instruction, Heinemann; February 13



**БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ
ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ОШИРИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН
ФОЙДАЛАНИШ**

Химматалиев Дўстназар Омонович

педагогика фанлари доктори, профессор .в.б.

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти

Эрназарова Мунисхон Жўракуловна

Тошкент вилояти Чирчиқ педагогика институти

Педагогика ва психология йўналиши магистранти

Телефон: +998917793882

Munixonernazarova21@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Ушбу мақолада ўқувчиларнинг, асосан бошланғич синф ўқувчиларини интеллектуал қобилиятларини оширишда дидактик ўйинлардан фойдаланиш. Дидактик ўйинларнинг мазмун-моҳияти ва ўқувчиларни интеллектуал қобилиятларини оширишда ўқитувчининг ўрни ҳақида маълумотлар ёритиб берилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: таълим, бошланғич синф, ўқувчи, ўқитувчи, дидактик , интеллектуал, интерфаол, қобилият, технология.

Ҳозирги бошланғич таълим тизимининг асосий вазифаларидан бири таълимнинг сифат ва самарадорлигини ошириш ва ўқувчиларни интеллектуал қобилиятларини ривожлантириш, фикрлаш доираларини кенгайтириш, мустақил фикрлашга ўргатиш, ўзлигини англаш, мактабда ва мактабдан ташқари ишларда фаоллигини ошириш, ўқувчиларни ҳар томонлама баркамол шахс сифатида тарбиялашдан иборат.

Бугунги кунда таълим-тарбия соҳасида ривожланиб бораётган замонавий педагогик инновацион технологиялар ўқувчиларни мустақил ўқишга, фаоллик кўрсатишга, фикрлашга интеллектуал қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам берадиган жараён бўлиб, бунда ўқувчи ўқитувчи раҳбарлигида ўзи билим олади, ўрганади, ўзлаштиради. Бунинг учун ўқитувчи бир хил қолипдаги дарс ўтиш билан чекланиб қолмаслиги, ўқитишнинг янгича, интерфаол методларини мавзунинг мақсадидан келиб чиққан ҳолда танлай олиши ёки мавжуд методларни ўтилаётган мавзуга мослаштириб олиши, ўз билимини доимий такомиллаштириб бориши, таълим –тарбия жараёнидаги янгиликлардан хабардор бўлиб бориши зарур.

“Қобилиятли ўқувчиларнинг (математик фаолият жараёнидаги) тафаккури: а) тез ва кенг умумлаштириш билан; б) тугал хулоса чиқаришлар тенденцияси билан; в) фикрлаш жараёнларининг ҳаракатчанлиги, масалаларни ечишга ёндашишдаги нуқтаи назарларнинг хилма-хиллиги, бир ақлий фаолиятдан иккинчисига осон ва эркин ўтиш билан; г) масалани ечишда аниқликка, оддийликка, рационалликка интилиш билан характерланади”.[1] Математикага қобилияти бўлган ўқувчиларнинг хотираси математик системаларнинг турли элементларига нисбатан турлича намоён бўлади, уларнинг хотираси умумлашган характерга эга. Масалаларнинг типлари ва уларни ечиш усуллари, фикрларнинг далил ва исботларнинг схемалари тез эсда олиб қолинади ва мустаҳкам эсда сақланади.

Крупская “таълимнинг ва ўқувчиларнинг ақлий ўсишининг муваффақияти бериладиган маълумот мазмуни билангина эмас, балки билимларни онгли ва мустаҳкам ўзлаштиришни кўзда тутадиган ўқитиш методларини қўлланиши билан ҳам белгиланади. Ўқитиш методлари фаол бўлиши ҳамда болаларнинг ақлий кучларини ишга солиш керак”[2]-деб ҳисоблайди. Э.Ғозийев ўқув қўлланмасида тафаккурнинг таълимдаги роли жуда муҳимлигини таъкидлайди. Теварак атрофдаги воқеликни билиш учун кишида фикр юритиш операциялари, тафаккур шакллари яхши ривожланган бўлиши керак. Маълумки, ўқитишнинг барча методлари ўқувчилардан мустақиллик, фаоллик, оперативлик, ижодий ёндашишни талаб қилади. Ақлнинг бу муҳим хусусиятларини тафаккур ривожисиз таркиб топтириб бўлмайди. Шунинг учун таълим жараёнида тафаккурни тараккий эттириш бош вазифа ҳисобланади. Аҳдлий анализ ўқувчиларда 3-синфдан бошлаб аста-секин системалашиб боради. Даставвал ақлий анализ элементлари амалий анализ билан аралашган ҳолда келади. Масалан, болалар ташқи кўриниши бир-бирига ўхшаган турли буюм ва ҳодисаларни анализ



қилиш пайтида бевосита идрокка боғланиб қолмасдан балки улар тўғрисида йиғилган билимларни ҳам ишга соладилар. Биринчи синф ўқувчиларининг тафаккури қуйидагича ривожлантирилса, у ҳолда самарали натижалар берилиши мумкин. Боланинг “Бу нима?”, “Нега бундай?” деган саволларига ўзи жавоб беришига ўргатиш керак. Бу ўринда асосий вазифа унга тўғри кўрсатма бериш, уни мантикий хатолардан қутқариш, тўғри мулоҳаза юритишга қўмаклашишдан иборатдир. Масалан, “5” рақами қандай бўлаклардан тузилган? Бир жуфт сўздан гап тузиш мумкинми? Тўрт таёкчадан тўртбурчак ясангчи... ва бошқалар. “Кичик мактаб ёшидаги болалар тафаккурида аниқ образларга суяниб мулоҳаза юритиш, яъни аниқ тафаккур абстракт тафаккурдан маълум даражада устун туради. Шунинг учун дарс жараёнида ўқитувчи болаларни тафаккур усулларига ўргата борса, уларнинг тафаккури тез ривожланиш поғонасига кўтарилади. Бундан ташқари ўқувчиларнинг билишга қизиқиши билим фонди ортади.[3]

Ўқувчиларни интеллектуал қобилиятларини ривожлантиришда кўпроқ интерфаол методларга эътиборни қаратиш даркор. “Интерфаол” сўзи инглизча –интерастиян яъни интер –аро, ўзаро аст-ҳаракат маъноларини англатади. Бу ўзаро ҳаракат яъни ҳамкорлик асосида ўқитиш демакдир.Интерфаол методлар билан ишлаш ўқувчиларни мустақил фикрлашга ундайди.Қуйида ана шундай методлардан бир нечтаси ҳақида фикр юритамиз.

“Ҳа ва Йўқ” методи

Бу метод бошланғич синф ўқувчиларини билимларини бойишига, уларни тез фикрлаш қобилиятларини ошишига, тасаввурлари кенгайишига хизмат қилади.Методнинг мақсади ўқувчиларнинг фикрлаш қобилиятларини ўстириш, ҳозиржавобликка ўргатиш.Бу методни қўллаш учун ўқитувчи синф ўқувчиларининг ҳар бири учун иккитадан карточка тайёрлаб олади.Биринчисига “Ҳа”, иккинчисига “Йўқ” сўзи ёзилган бўлади.Ўқувчилар икки гуруҳга ажратилади ва фикр ёки маълумот ўқиб берилади, сўнг мустақил ўйлаш учун вақт берилади. (1-2 дақиқа)дан сўнг ҳар бир ўқувчи ўз карточкасини кўрсатади . Ўқувчилар фикрини билдириб бўлганидан сўнг, икки хил фикрли 2 та ўқувчига ўз фикр мулоҳазаларини билдиришга имкон берилади.Бу ўқувчилар ўз фикрларини асослаб бера олишлари керак.Бу методда жавоблар қисқа бўлганлиги боис саволлар ҳам шунга кўра тузилиши керак.

Масалан: 255 сони 1000 ичидаги сонларга кирадими?

Конус фазовий шаклми?

Эртак халқ оғзаки ижодига кирадими?

“Почта қутиси” методи

Бу метод бошланғич синф ўқувчилари учун жуда қизиқарли бўлиб, уларни фаолликларини оширишга, ҳозиржавобликка ўргатувчи методдир.Бу методдан фойдаланиш натижасида ўқувчиларнинг билим доираси кенгайди, тезкор фикрлаш қобилияти ошади. Почта қутиси методи қуйидагича амалга оширилади.Масалан: математика дарсларида фойдаланилганда 3 та сонли қутилар тайёрланади.Ўқувчиларга жавобда мана шу сонлар чиқувчи мисоллар ёзилган тарқатмалар берилади.Ҳар бир ўқувчи ўзига берилган мисолни ишлайди ва жавобига қараб керакли қутига солади.Бу методдан барча фанларда фойдаланса бўлади.

Бошланғич синф ўқувчиларини интеллектуал қобилиятларини оширишда хотира машқи методи ҳам жуда яхши самара беради.Ўқувчиларни фаолликларини оширишга, хотираларини мустаҳкамлашга, диққатларини жамлашга, ҳозиржавобликка ўргатувчи методдир.

Шунингдек ўқувчиларни мантикий фикрлашини ривожлантириш мақсадида “Ортиқ-часини топ”, “Фарқини топ” номли бир қатор топшириқлардан фойдаланиш ҳам ижобий самара беради.

Хулоса қилиб айтганда, бошланғич синфлар таълим тизимининг пойдеворидир. Бошланғич таълим давлат таълим стандарти таълим мазмуни негизини ўқувчилар эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма, малакалар , таянч компетенциялар, ўқувчилар тайёргарлик даражасига қўйилган талабларни ўзида ифодалайди.

Шундай экан, бошланғич синф ўқувчиларига ДТС талаблари асосида билим бериш, тарбиялаш бугунги куннинг долзарб вазифаси ҳисобланади.Бошланғич синф ўқитувчиси шуни доимо ёдда сақлаши керакки, дарс ўқув тарбия жараёнининг асосий формаси бўлиб,ҳозирги замон тарбиясининг барча жараёнлари ўқувчи шахсига, унинг мустақил, эркин фикрлаши, мустақил фаолият юритиши ва ижод қилишга ўргатишдан иборатдир.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Азизхўжаева Н.Н. “Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат” - Т.: «Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси», 2003 й. А.С Ефимовнинг “Дарсларда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ўстириш” Тошкент “Ўқитувчи” нашриёти 1966-йил
2. Ж.Йўлдошев, С.Ҳасанов “Педагогик технологиялар” “ Иқтисод-молия” 2009й.
3. Ж.Йўлдошев, С.Усмонов “Илғор педагогик технологиялар” Т 2004 й
4. Крутецкий В.А “Воспитание дисциплинированности у подростков ” Москва 1960 г
5. Д.Пулатова “Бошланғич таълимда педагогик технологияларни қўллаш” (услубий қўлланма) Тошкент “Адабиёт учкунлари” 2018 й
6. Очилов М. “Янги педагогик технологиялар” – Қарши: Насаф, 2000 й.
7. Камолдинов М., Вахобжонов Б. “Инноватсион педагогик технология асослари” – Ғаффорова Т. “Бошланғич таълимда замонавий педагогик технгологиялар” -Т., 2011 йил
8. Э.Ғозийев “Талим жараёнида ўқувчилар тафаккурининг ўсиши” Тошкент “Фан” нашриёти 1980



MOTIVATION IN LEARNING ENGLISH LANGUAGE

Ibadullayeva Ozoda Rustamovna

English teacher at the 11th school in Urgench

Abstract: Motivation is considered as one of the fundamental factors in successfully learning a language. This paper focuses on investigating the type and level of motivation in English language learning.

Key words: English, Uzbekistan, importance, motivation, language, students.

Learning English as an international language has a great importance in different levels of education in Uzbekistan, but unfortunately most of the students are not satisfied with their abilities in English after studying it for several years in their school. Certainly there are different reasons for this problem, but one of the reasons which is the concern of this article is lack of motivation. Motivation has been widely accepted by teachers and researcher as of the key factor that influence the rate and success of foreign language learning. This article takes a look into what motivation is and intended to highlight motivation as an important factor in learning English as a foreign language. The hypothesis of this article is that the scores of students who are motivated are not the same as the scores of students who are not motivated.

The students participation in the teaching and learning activities is regarded as the essential component to support the learning outcomes, especially in the English as Foreign Language classrooms. The active participation of students really influenced the direction of teaching and learning activities, which in turn will influence the success of the teaching and learning process. The term of active participation is closely related to the students' engagement during the teaching and learning activities because the students who are engaged will be involved and interested in the course materials and learning because the students are the central focus in the learning process.

The students' engagement is closely related to the active participation of students in the learning activities. Therefore, the students' engagement is increasingly valued as the indicator of successful teaching and learning activities since the engaged students will participate actively and interested in the materials given. The students' engagement can be defined as the student's psychological investment and efforts in the learning process to understand and master the materials, skills and instructions given. The engagement represents the students' psychological and cognitive efforts in accomplishing the tasks, not only the amount of energy they need to complete the tasks assigned. The students are cognitively and intentionally involved in any learning activities.

Motivation is the influential factor in learning activity. Without having motivation, goals of learning is hard to be achieved because the students' effort and desire affect the learners in achieve the learning goals. By getting motivation students will be spirited in learning process, so they will be shoved to comprehend English well.

Learning a foreign language enables students to relate to other cultures, expand their employment and witnessing opportunities, and sharpen skills in their own language. Many high school students, however, are not motivated to learn because of the boredom that often characterizes the foreign language classrooms. More than any other teacher, the foreign language instructor is not only a teacher, but a motivator.

In fact, there were students who had barriers to master English as a compulsory subject in school. It was caused by some reasons whether from students or teachers which affected their motivation to learn English. Based on a pre research conducted by the writer, it was found that the teacher admitted students had different level in mastering English which caused the difficulties for the teacher to generalize students' ability in learning English. Therefore, the teacher couldn't apply students centered learning method and had to explain more details about teaching material. Besides, students' passiveness while teaching learning processes also occurred as the problems for teachers to know whether students got confused or understood about teaching material.

On the other hand, the students revealed that they were more understand about teaching material from teacher's explanation than learning by themselves, such as reading the books by themselves or searching the information in the internet about teaching material. Therefore, motivation plays a big role in engaging students to learn.

Student who was categorized as good to excellent level mostly influenced by peer group as



factor that influenced their motivation in learning English. Based on students' response on the questionnaires, it was shown that students who had high motivation tend to be competitive in learning. It happened because they had high self confidence, as a result when they failed or got a lower score, they would be able to handle it. Therefore, peer groups also play an important role as a trigger to motivate them in learning. There were only 2 students (5, 88%) was categorized as poor to average level of motivation. Students who were categorized as poor to average level tend to learn English because their parents asked them to do so. Parents emphasized the importance of learning English and asked them to learn English at English course, yet they did not guide or involve their children to learn together at home.

The findings of this study evidenced that the students' motivation in learning english placed in average to good level. Therefore, there are several suggestions provided by the writer: The teacher is suggested to create activities which may improve students' motivation in learning english in order to enhance students willingness to learn in the classroom. The teacher is suggested to conduct activities which involve large group of students. This may help the students out from their 'safe area' instead of being comfortable to share ideas with only one partner or small number of classmates. The students are suggested to be brave to express their ideas in classroom as they already realized the importance of learning English but still lack of confidence to ask their teacher when they face difficulties. The active students are also suggested to help their passive classmates out and supporting them in learning process.

References:

1. J. Jalolov. English Teaching Methods, Teacher Publishing House. Tashkent.
2. К вопросу об истории развития интенсивных методов зарубежном. Methods intensivnogo obucheniya inostrannim yazykam. Izd. MGPIIYa, «Visshaya shkola» 3, 1977



BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKILLASH ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Imomova Zilola Ortiqovna

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
42-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi,
Shuhrat medali sohibasi

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda dars samaradorligiga erishish uchun integratsion darslarni tashkillash va shu orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish asoslari yoritilgan.

Kalit so'z: dars samaradorligi, integratsion darslar, milliy qadriyatlar, fanlararo aloqadorlik

Savodxonlik darslari o'qish va yozuv K.D.Ushinskiy davridanoq integrirlanib o'tiladi. Bunda bir butun jarayon: kitob-o'qish jihozi sifatida, darsda olgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, matn - so'z san'ati sifatida, nutqning rivojlanishi, kitob olami, suhbatdoshlar doirasi sifatida. Azaldan Ona tabiatshunoslik integrirlangan: tabiatshunoslik va geografiya. Matematika asli arifmetika, algebraning elementlari, geometriya, arifmetik materiallar yaxshiroq o'zlashtirishga ko'maklashadi. Shu bilan birga algebrani, geometriyani, mehnat ta'limi o'rganishga asos soladi. Yuqorida aytilgan integrar kurslarni o'qish - ona tili, o'qish - tabiatshunoslik, o'qish — tabiatshunoslik, o'qish — tasviriy san'at, o'qish - tabiatshunoslik - tasviriy san'at, ona tili - o'qish -tasviriy san'at, o'qish — tabiatshunoslik — mehnat, ona tili -tabiatshunoslik - tasviriy san'at kabilarga birlashtirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga yetish ko'rib chiqiladi, mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolaning mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Ona tili, o'qish, matematika, mehnat darslari integratsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Masalan, “Kuz” mavzusi o'tilsa, mavzu o'qiladi, tushuntiriladi, hosil yig'ib olishga doir masalalar yechiladi, mehnat darslarida mevalarni yasash mumkin. Shunda esa darsni mukammal o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Masalan; Bog'da o'quvchilar birinchi kuni 35 kg, ikkinchi kuni 45 kg olma terishdi. Hammasi bo'lib necha kg olma terishdi? $35+45=80$ javob: 80 kg. Bu masala asosida mevalar rasmini chizishlari mumkin. Bola bir darsning o'zida kuz haqida o'rgandi, mevalar haqida bildi va rasm chizadilar, kuz mevalari haqida masala yechadilar. Shunday qilib, o'quvchi birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va uzoq vaqt esda saqlab qoladi. Matematika, jismoniy tarbiya, tabiat, musiqa darslari mujassamlashtirilsa foydadan holi bo'lmaydi. Musiqa eshitish, mavzu yuzasidan misol yechish, narsalar yasash - bularning hammasi dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;

- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga integrirlangan darslarga o'tish oson, chunki bir o'zi hamma



fanlarni o'qitadi. O'quvchi qanchalar yosh bo'lsa, u shuncha kam biladi. Shuning uchun boshlang'ichda integratsiya imkonlari chegaralangan. Boshlang'ich ta'limda amalda ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish va rivojlantirish kerak. Boshlang'ich ta'limda integratsiya «oz-oz hamma narsadan» usuliga ega. Bolalar boshlang'ich ta'limda juda ko'p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to'g'risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to'ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o'qituvchi bir xillikdan qochishi va rang-barang shakl va usullarda dars o'tishi talab etiladi. Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o'quvchilardan oladi, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Lekin 1-2-sinflarda integratsion darslarga uncha berilmaslik tavsiya etiladi. Chunki bolaning bilim zapasi ko'p emas, grammatik, matematik va texnik ko'nikmalari shakllanib ulgurmagan. Chunki integratsiya mavjud mavzuni kengaytiradi, chuqur tahlil qilishni talab qiladi, hodisalarni umumlashtiradi, ularning bilim doirasi boshqa fanlar hisobiga kengayadi. O'quvchilar mustaqil tarzda shuncha ishni bajarishga kuchi yetmasligi mumkin. O'z navbatida o'qituvchiga juda ko'p talablar qo'yiladi. Integrirlangan dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan katta aql-zakovat, sabr-matонат, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo'lishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar. 2003 y.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000 y.



МАТЕМАТИКА ДАРSLAR SMARODRLIGINI OSHIRUVCHI OMILLAR

Jumanova Nasiba Babajonovna

Urganch shahar 11-son umumiy o'rta ta'lim
maktabining matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika darslarining samaradorligini oshirish omillari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: matematika, omil, shaxs, o'quvchi, samaradorlik, test, masala.

Hozirgi zamonning muhim talablaridan biri o'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini faollashtirishdan iborat. Har bir dars fikrlash, ijod qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bir necha shunday usullar bilan tanishaylik:

- 1) Butun sinfga topshirilgan ijodiy ishda har bir o'quvchining maksimal bilimini hisobga olish.
- 2) Maxsus didaktik materiallardan foydalanish.
- 3) Muammoli vaziyat yaratish, testlardan foydalanish.
- 4) Har xil ko'rsatmali va axborot- kommunikatsiyatexnologiyalarini qo'llash.
- 5) Darsda musobaqa shaklidan foydalanish.

Darsda alohida va umumiy ishni birgalikda mohirona olib borish differentsiallashtirish o'qitishni amalga oshirishda muhim hisoblanadi. O'qituvchining mahorati darsda o'quvchilar uning tushuntirishlarini qanday qabul qilishlariga, o'quvchilar qanday ishlashlariga, savollarga javob berishiga qarab baholanadi. Ma'lumki, boshlang'ich matematika asosan uchta kursdan iborat: unda arifmetika, algebra va geometriya elementlari bayon qilinadi. Bu yo'nalishlar bir – biri bilan uzviy ravishda bog'liq holda qaraladi. Bu esa kursda o'tiladigan matematika darsi tuzilishi va metodikasiga ta'sir qiladi.

Matematika kursining xususiyatlari nazariy bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va o'zlashtirishni nazarda tutadi. Shu sababli har bir darsda yangi materialni o'rganish bilan bir qatorda ko'nikma va malakalarni mukammallashtirish ishlari olib boriladi.

Matematika darslarining xususiyatlari o'quvchilarning matematik materialni o'zlashtirish xususiyatlariga ham bog'liq: materialning abstrakt xarakterda bo'lishi ko'rsatma vositalarini, o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashni, o'quvchilarga differentsial va individual yaqinlashishni talab qiladi. Hozirgi zamon o'qituvchisi o'zida yuqori professional pedagogik madaniyatni, demokratik kelajki ko'ra bilish sifatlarini mujassamlashtirish; o'zi o'qitadigan fanning so'nggi yutuqlarini, pedagogik va metodik nazariyani yaxshi bilish; psixologiya ma'lumotlariga asoslanishi; o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishi usullarini izlashi kerak.

Dars samaradorligi o'quv materialining mazmuni bilan uni o'qitish metodlari bilan o'quvchilarning faoliyatlari orasidagi bog'lanishlarning darajasiga bog'liq, shuningdek, dars alohida qismlarning o'zaro bog'liqligini qanday amalga oshirilishiga, o'quvchilarning nazariy va metodik tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi dars rejasini tuzishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak. Shu dars qanday qismlardan iborat bo'lish kerak, ularni qanday ketma-ketlikda joylashtirish, ular o'rtasida O'quv materialni qanday taqsimlash, bu qismlar bir biriga qanday bog'lanishda, ular darsning asosiy didaktik maqsadini amalga oshirishda yetarli miqdorda yordam bera oladimi va h.k. Matematikadan dars turlari: 1. Murakkab dars.

2. Yangi materialni o'rganish darsi.
3. Bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash darsi.
4. Takrorlash – umumlashtirish darslari.
5. Bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish darsi.
6. Muammoli dars.
7. Noan'anaviy dars.

Individual ishlarni tashkil qilishdan maqsad O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun kurash, O'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarining oldini olish va uni bartaraf qilishdan iborat. Guruhli mashg'ulotlari butun sinf O'quvchilari bilimidagi kamchiliklar bir xil bo'lgandagina o'tkaziladi. Baza bunday mashg'ulotlar individual xarakterda bo'lishi mumkin. Bunday mashg'ulotlarning tafsiloti: muvoffaqiyatga erishmoq uchun u yoki bu O'quvchining o'zlashtirmaslik sabablarini aniq bilish, ular yo'l qo'yadigan xatolarni aniq hisobga olish kerak: bu O'quvchi qaysi bosqichda «xatoga yo'l» qo'ygan, nimani yetarlicha



o‘zlashtirmaganini aniqlashga yordam beradi deb xulosalanadi. Matematik sayohatlarning maqsadi – aniq hayotiy dalil va taassurotlarni talab qilish. Sayohat o‘tkazishdan maqsad nimaligi bolalarga tushunarli bo‘lishi nihoyatda muhimdir, shunday bo‘lganda bolalar oldindan nima qilishlari kerakligini va o‘zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib oladilar. Maktabning joylashgan o‘rniga qarab bolalar bilan har xil ustaxonalarga, fabrikalarga, kombinatlarga, jamoa xo‘jaligi va boshqa joylarga sayohatlar o‘tkaziladi. Qurilish materialidan foydalanish, mashinalardan, ishchi kuchlaridan va boshqa narsalardan foydalanish haqida masalalar tuzish va yechish mumkin.

Matematikadan sinfdan tashqari ishlarning turlari va mohiyati. Sinfdan tashqari ishlar O‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba’zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi. Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari mavjud: matematika to‘garagi, matematika ertaligi, matematikadan fakultativ mashg‘ulotlar, matematik matbuot, matematik viktorina va olimpiadalar.

Matematika minutliklarida topshiriqlarga qiziqish uyg‘otish va quvvatlash uchun bu topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matematik topshiriqlarga o‘xshash bo‘lmasligi kerak. Mashg‘ulot o‘tkazish uchun har xil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, nostandart masalalar, qiziqarli kvadratlar, rebuslar, topishmoqlar va boshqalar material bo‘lib xizmat qiladi. Matematika to‘garagi matematikadan tizimli sinfdan tashqari ishning eng ko‘p tarqalgan turi. Uning asosiy vazifasi – matematikaga alohida qiziqadigan O‘quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Bularning barchasi ta’lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Alinov, O.R.Xolmuhammedov, M.A.Mirzaxmedov. 9—algebra 2006- yil
2. R.H. Vafoyev, J.H. Husanov, K.H. Fayziyev, Yu.Y. Hamroyev. “Algebra va analiz asoslari”. Toshkent “O‘qituvchi” 2003



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION MASHQLAR

Mamitaliyeva Marjonaxon Iqboljon qizi,

Farg‘ona viloyati Quva tumani
42- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
tel: +998 916681660

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion mashqlar ahamiyatini yoritish.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi shaxsi, fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar, mantiqiy fikrlash, ona tili, savodga o‘rgatish jarayoni.

Boshlang‘ich ta‘limda ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi - o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim mazmunini savod o‘rgatish va nutq o‘stirish, amaliy fonetika va grammatika, imlo va nutq o‘stirish kabi bo‘limlar tashkil etadi.

Savodga o‘rgatish jarayoni ikki davrni: alifbegacha tayyorlov va alifbe davriga ajratiladi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta‘lim savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi o‘quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun Ona tili o‘quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so‘z turkumlari, ularning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik-semantik guruhlari, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi maktabga kelganda, keng lug‘at boyligiga ega bo‘lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob‘ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so‘zlar bo‘lsa). Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o‘rgatish bilan bilimni material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi.

Mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi mashqlar bolalarning so‘z boyligi va tilining umumiy o‘rishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog‘lab olib boriladi. Masalan:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (*ko‘ylak, kostyum*) va oyoq kiyimlar (*botinka, tufli*); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «*Bu nima?*» so‘rog‘iga javob berishga o‘rgatiladi: *Bu nima? - Mushuk. Mushuk nima? Uy hayvoni.*

Mazkur mashqni “Toifalash jadvali” usulida ham amala oshirish mumkin:

<i>Uy hayvonlari</i>	<i>Yovvoyi hayvonlar</i>	<i>Parrandalar</i>	<i>Qushlar</i>	<i>Hasharotlar</i>
Sigir	Bo‘ri	O‘rdak	Qaldirg‘och	Chumoli
Ot	Ayiq	G‘oz	Burgut	Ari
Qo‘y	Yo‘lbars	Tovuq	Bulbul	Kapalak

2. Bir turdagi narsalarni sanab krsatish va umumlashtiruvchi bir so‘z bilan nomlash. Masalan, *stol, stul, shkaf* larni bir so‘z bilan qanday nomlash mumkin? (*Mebel*)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, *qalam, pero, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, stul* ko‘rsatiladi, o‘quvchilar o‘quv qurollarini ajratadilar, *stul* o‘quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.



Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha*.

4. Narsa-buyum nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlariga ajratish. Bunda so'zlar *choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi. O'quvchilar guruhlab, *idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ...* kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so'zlar ham aralash beriladi, bolalar to'rt guruhga ajratadilar:

- 1-guruh rang -
- 2-guruh maza -
- 3-guruh shakl -
- 4-guruh xususiyat -

5. Qarama-qarshi qo'yish bilan umumlashtirish: *qaldirg'och, chumchuq, bulbul* – qushlar, *tovuq, xo'roz, kurkalar-chi?* (*Parrandalar*.)

Mazkur mashqlar sermazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishiga xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1995.
2. Matchonov S., G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent, "Yangiyul" nashriyoti, 2008.
3. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2009.



TURLI TEMPERAMENTDAGI SHAXSLARDA STRESS TA'SIRIDA YURAK QON TOMIRIDAGI O'ZGARISHLAR

FIO Muallif: **Ataxonova Sohiba Dadaxonovna**

Ilmiy rahbar: **Gofirjon Raximjanovich Abdullayev**

Namangan Davlat Universiteti Biologiya yo'nalishi,

5A 140101 birinchi kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada stress haqidagi tushunchani har tomonlama ilmiy ochib berish; hayotida stress holatining paydo bo'lishini asoslash hamda foydali va zararli stress omillarini aniqlash; hayotda uchraydigan zararli stress omillarni bartaraf qilish yo'llarini aniqlash haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: stress, qayg'u, fiziologik jarayonlar, funktsional holatlar. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim jihatlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir. Barkamol inson ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek, jamiyatning-ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxs bo'lib, bunday shaxsni tarbiyalash bugungi kun talabidir. Hozirgi vaqtda stress tushunchasi keng tarqalgan atama bo'ib, uni har doim ham to'g'ri talqin qilaverishmaydi, u biologiya, tibbiyot, psixologiya, aniq fanlar, iqtisod hamda ijtimoiy fanlarda organizmning tabiiy va ijtimoiy omillar ta'siriga o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini aks ettirishda qo'llaniladi. Psixologik bilimlarni inson tomonidan o'rganilishi shuning uchun ham muhimki odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan ob'ektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo'lish bilan, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usul va vositalarini bilish va ulardan o'z o'rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi.

Kundalik hayotning tobora shiddatli tus olayotgani insonga bo'layotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolarning haddan ziyod zidlashuvi natijasida asablarning taranglashishi juda ko'p insonlarni stress holatiga duchor etmoqda. Kishi hayotini turli-tuman stress omillari ta'sirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Stress foydalimi yoki zararlimi? Bu savolga “ha” yoki “yo'q” deb javob berish mumkin emas, chunki ta'sir qiladigan stress omillari organizmni juda toliqtirmaslik ya'ni undagi asosiy fiziologik jarayonlarni, funktsional holatlarini normadan chetga chiqarib yubormasa bunday stress zararsiz, balki organizmning chiniqishi, moslashishi uchun foydali bo'lishi mumkin. Masalan, sportchi trenirovka va musobaqa paytida doimo shunday stressga duch kelib turadiki, natijada uning organizmi chiniqib, tobora kuchga to'lib, chaqqonligi va chidamliligi oshib boradi. Agar bu holatlar kuzatilmasa bajariladigan mashqlar stress omil sifatida yetarli bo'lmaydi yoki me'yoridan oshiq bo'ladi. Issiq yoki sovuq sharoitga organizmning chidamliligini oshirish uchun ham bu stress omillar yetarli darajada organizmga ta'sir etib turishi mumkin. Ilmiy tadqiqotchi yoki konstruktor ham surunkasiga ishlamasa, o'z asabini ayasa, biron foydali ish qilishi qiyin. Bu vaqtlarda stress omil yetarli kuchga ega bo'lmaydi, natijada organizm o'z imkoniyatlarini ishga solgisi kelmaydi. Shuning uchun ham stress omillar ma'lum kuchga ega bo'lishi kerak, shundagina har sohada belgilangan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritilishi mumkin. Demak, bunday ma'lum normadagi stress reaksiyasi organizm qarshiligini oshirib uni himoya mexanizmlarini hosil qiladi, chiniqtiradi. Stressning ahamiyati ham aynan shundadir. Yuqorida aytib o'tganimdek, stress tushunchasi hozirgi paytda asosan salbiy o'zgarishlarni o'zida mujassam qiladi. Shunday ekan stress holatining o'ziga xos fiziologik xususiyatlarini bilish, uning mexanizmlarini tushunish stressdan olinadigan ayrim zararli ta'sirotlarni kamaytirishda qo'l keladi.

Stress - kuchlanish tirik organizmning har qanday favqulotda va kuchli qo'zg'alishga nisbatan nospetsifik reaksiyasidir. Qo'zg'alish biologik, kimyoviy, fizikaviy, psixologik kabi qitqlagichlar natijasida chaqirilishi mumkin. Bunda eng muhimi stress paytida nerv tizimi alohida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Stress haqidagi ta'limotning organizmga kelishi bilan u hozirgi paytda fanda yadro energiyasi, genom, kompyuter, internet kabi tushunchalar bilan bir qatorda turadi. Stress holatlarini fiziologik tahlil qilishning yana bir usuli, kishiularning qaysi temperament egasi ekanliklaridir, agarda u melanxolik, pessimist bo'ladigan bo'lsa, bunday kishilar stressni



juda yomon o'tkazadi, organizmni dipressiyagacha olib keladi. Shuning uchun stressor ta'siridan chetlashish, bu xolatdan, vaziyatdan chiqib ketish kerak. Stress holatidan chiqish xolerik va sangvinik temperamentli kishilarda 25-50 daqiqani tashkil etishi mumkin, chunku ular aptemistlardir, ba'zan stress va dipressiyadan mustaqil chiqish mumkin, ba'zan esa mutaxassis, yaqinlarning ko'magi kerar bo'ladi. Stressning yuzaga kelishi, uning depressiv holatga aylanishi, inson organizmining ham vegetativ, ham ruhiy holatlarining o'zgarishi insonning o'z qobiliyatiga, stressorlarni yengishi, stress holatdan chiqib ketishi, xox o'zi xox shifokor mutaxassis, xox yaqinlarining ko'magi bilan bo'lsin stress va uning oqibatlarini to'g'ri talqin qilgan holda u bilan kurashish, yoki shu omil ta'sir qilayotgan muhitdan chiqish, uni tark etish, stressni davolash, yoki u yuzaga keltirgan kasalliklarni davolash emas, stressni yuzaga keltiruvchi omillar, ularning sabablarini bartaraf etish kerak, shundagina inson stress holatidan yengil chiqib keta oladi. Golland olimi Smelik va uning kasbdoshlari gipofizni oraliq qismi, orqaqismiga nisbatan emotsional stressga organizmni javob berishini ko'proqkuzatishgan. Emotsional stemullar gipofizni oraliq qismidagi sekreitsiyani, alfa –melanotsitlarni rag'batlantiruvchi gormon, betta – endorfin, betta – adrenergik mexanizm qo'llanilishini ta'minlaydi. Stress sababli organizmda gormonal o'zgarishlar paytida, yurak faoliyati o'zgaradi, qonda glyukoza miqdori ortadi. Glyukoza eng oson energiyaga mobilizatsiyalanuvchi modda bo'lib, bunda erkin aminokislotalar miqdori ham ortadi, aminokislotalar oqsilni sintez konlari uchun zarur ashyodir. Stress – inson hayotida, deyarli hammaga, har kun hamrohlik qiladi. Doimiy tushkun kayfiyat nafaqat insonning o'zining, balki uning barcha hayotiy ko'rsatkichlarining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Tom ma'noda, organizmni tiriklayin yondiradi. Inson organizmi ko'nikuvchan bo'lgani sababli bu holatga sekin-asta ko'nikib boradi, natija esa dori vositalari, shirinliklar, spirtli mahsulotlar ichish bilan unutiladi. Oqibatda muammo yechilmaydi, balki aksincha chuqurlashadi, tez-tez sodir bo'lib turadigan stress holatlarida yuqoridagi singari chora ko'rilsa, o'z navbatida boshqa kasalliklarga sababchi bo'ladi. Stress uzoq vaqt davom etganda insonning yurak qon tomir tizimida kasalliklar vujudga kelishi muqarrar. yuzaga keladigon kasalliklarning barchasi inson salomatligiga jiddiy zarar etkazadi. Tomirlarda qon bosim bilan oqqanligi sababli bosh miyaning tomirlari jiddiy shikastlanib qon quyilishi [INSULT] kasalligini keltirib chiqaradi. Bu kasallikda odamning tuzalishi 100% dan atigi 1% ga to'g'ri keladi. bosh miyaga qon quyilishida insonnig ayrim a'zolari ishdan chiqadi, harakatlanmaydi, nerv tizimi sezish funksiyasini to'xtatadi. Tamoman dunyodan ajralib qolgandek harakatlanmay yotadi. Yurakning [INFARK] kasalligida ham yurak qorincha va bo'lmachalaraning sistola va diastola holati bir miyorda ishlamay qolishi qisilgan holatdan bo'shashmay qolishi yoki aksincha bo'lishi bilan kechadigon infark kasalligiga ham ruhiy dipressiya stress sababchidir. Xulosa yakunida shuni aytish mumkinki, inson stress oqibatlarini emas uni yuzaga keltiruvchi omillarni fartaraf etsa stressning oqibatlari juda salbiy bo'lmaydi. Stress kundalik hayotimizning ajralmas bir bolagi. Uni to'g'ri talqin qila olish, salomatlik kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shamsiyev.N.A., Komilova B.O. “Stressning organizmdagi roli”. Axborot jurnali .
2. Qurbonov.Sh. Stress nima? Ilmiy ommabop qo'llanma. Toshkent, 2012.
3. Леонова А. Костикова Д. На грани стресса. В мире науке. Москва, 2014.
4. G'afurov .A, Abdukarimov J, Tolipova O, Iskandulov.M ,Umaraliyeva O`rta ta`lim muassasalarining 10- sinfi va o`rta- maxsus, kasb- hunar ta`limi muassasalarining o`quvchilari uchun darslik. Sharq nashriyoti.-2017
5. A.Loginov fiziologiya va anatoviya. 2005 yil
6. Abdullayev .G,R .Bliyaniya katatsina I benzonala na obmen lipidov golovno mozge kris v dinamike razvitiya xronicheskogo emotsionalnogo stress.
7. Abdullayev.G.R. Ergasheva.G.M, Klemesheva.I.S, Almatov.K,T, Izmeneniye nekotorig fiziologicheskix pokazately organizma v dinamike xronicheskogo emotsialnogo stressa.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI

Matniyozova Sanobar Azatovna

Xorazm viloyati, Bog‘ot tumani

19-maktabning boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

93-758-06-25

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang‘ich sinflarda ta‘lim samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich, o‘qituvchi, ta‘lim, zamonaviy, maktab, usul, o‘quvchi, muloqot, aqlli, yondashuv.

Zamonaviy ta‘limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta‘lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an‘anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma‘lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta‘lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mustaqil o‘ylay oladigan tafakkur yuritib to‘g‘ri ma‘qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak deb ta‘kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o‘z nutqlarida.

Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm- fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib yetishishiga zamin yarataolmaymiz.

Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining deyarli barchasi yangitdan qurilgan va kapital ta‘mirlangan qariyb 9,5 mingta maktab zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo‘lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shunday ekan, ta‘lim sifatini baholash sohasidagi yangi xalqaro tadqiqot haqida xalq ta‘limi tizimi xodimlari, o‘qituvchilar hamda ushbu sohaga qiziquvchilar uchun ma‘lumotlar yetkazib berish maqsadida «Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash» nomli metodik qo‘llanma ishlab chiqildi. Mazkur qo‘llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o‘ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiy ma‘lumotlar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bikbayeva N.U va boshqalar ”Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi ”- Toshkent.: O‘qituvchi, 2007, 208 bet.
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.-T.: ”Ilm-Ziyo”, 2005, 240-bet



MATEMATIKANI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARI

Nurmetova Mavlyuda Axmedovna

Urganch shahar 11-son umumiy
o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada matematikani o'qitish va uning ahamiyati, uni o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalari va texnologiyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, nazariya, matematika, uslub, masala, misol, dunyo.

Talim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga ya'ni texnologiyalarga aylanib bormokda. Huddi shu kabi talim-tarbiya sohasida ham so'ngi yillarda innovacion texnologiyalarni qo'llab o'qitish orqali ham yuqori samaralarga erishilmokda. Innovacion texnologiya hozirda barcha innovacion kasblar xamda talimtarbiya jarayonini tashkil-qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'lik kasblarning asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, matematikada asosiy metod sifatida analitik metod qo'llaniladi, chunki topshiriqlarning aksariyati, ayniqsa algebrada, shartli-ramziy yozuv sifatida hal etilishi lozim. Grafik metod esa qo'shimcha, ko'rgazmali vosita tariqasida qabul qilinadi.

Ta'lim mazmunini shakllantirish jarayoni har bir yo'nalish bo'yichadastur ishlab chiqish bilan ham, o'quv fanining tuzilishi bilan ham bog'liqdir. SHu sababli ta'limga uni tabaqalashtirish orqali yondashish tarkibiy-mazmunli mezonga rioya etilishini talab etadi. Uning mazmuniga to'xtalsak. Matematik ta'limning umumiy maqsadlari ta'limning har bir yo'nalishida barcha kasblar uchun umumiy bo'lgan, tayanch matematik tayyorgarlikni kengaytiruvchi va umumta'limiy ahamiyatga ega bo'limlar mujassamlanishini nazarda tutadi. Bu matematik ta'lim mazmuniga va o'quv-metodika majmuasiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib, u matematika ta'limining ixtisosiy tabaqalanishini amalga oshiradi.

Barcha kasblar uchun invariant(o'zgarmas, ya'ni yadro) bo'lgan mazmunli asosdan tashqari, texnika yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida matematika fani dasturi o'z ichiga variativ(o'zgaruvchi, ya'ni po'stloq) qismni ham qamrab oladi.

Matematika g'oya sifatida universal bo'lsa-da, hodisa sifatida u muhitga bog'liq va shu sababli boshqa mamlakatlarda matematika ta'limi muammolari hal etilishi yo'llariga ko'r-ko'rona taqlid qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biroq, vaqt tomonidan sinovdan o'tgan va dunyo ko'lamida matematika ta'limi rivojlanishi tendensiyalariga xos bo'lgan g'oyalarni yangi mazmunni shakllantirish jarayonida e'tiborga olish zarur.

Matematika o'qitish jarayonida nazariya va amaliyotning o'zaro uzviy bog'liqligi ko'proq masalalar echishda amalga oshirilishi mumkin. "Masalalar orqali matematika o'rgatish" tezisining manbai D. Poya tadqiqotlaridir. Uning fikricha, matematikani egallash - masalalarni, ayni paytda odatdagidan tashqari, ma'lum darajada fikrlash erkinligini, sog'lom mantiqni, o'ziga xoslikni talab etuvchi masalalarni echa bilishni anglatadi.

"Masala" atamasini kengroq ma'noda, xususan, biron-bir natijani topishga yo'naltirilgan har qanday hisoblash mashqi va har qanday topshiriq sifatida tushunamiz.

Matematika ta'limida masalalardan foydalanish muammosiga maxsus bag'ishlangan tadqiqotlarda, xususan, YU.M. Kolyaginining ishlarida uqtiriladiki, masalalar nafaqat matematikani o'rganish vositasi, ayni paytda ular ta'lim maqsadidir, ya'ni matematika ta'limi mazmuniga kiradi. Matematika ta'limida masalalarning roli va o'rnini o'zgartirish masalasiga batafsil to'xtalmagan holda shuni qayd etamizki, hozirgi paytlarda ta'limda qo'llaniladigan masalalar vositasida o'rgatish metodikasi o'quv faoliyatining tarkibini tashkil etuvchi uch bo'g'inning har birida: asosli-yo'naltirilgan, ijroiya-yo'naltirilgan, nazoratli-baholash bosqichlarida masalalarning xilma-xil vazifalarining keng qo'llanishini ko'zda tutadi. Masalalardan nafaqat nazariy materialni mustahkamlashda asosiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish paytida, balki kirish vositasi, shuningdek, bilimlarni sistemalashtirish va umumlashtirish, o'quv fanlariaro va o'quv fanlarining ichki aloqalarini amalga oshirish paytida va hokazo hollarda foydalanish mumkin.

Barcha mamlakatlar o'quv rejalarida matematika etakchi o'rinlardan birini egallagan bo'lsa-



da, ammo qiyoslaganda maktablarning matematika kurslari mazmunan xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Buni xorijiy pedagoglar ham tasdiqlaydi. Ularning fikricha, matematikaning umumiy xususiyatlariga qaramay, ayrim mamlakatlarda oʻrta maktabning matematika dasturlari hech qanday umumiylikka ega emas. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda matematika kursi faqat mazmuni bilangina emas, balki ularni bayon qilinishi bilan ham turlicha ekanligi maʼlum boʻldi. Fransuz pedagoglarining fikricha, ularning dasturlari boshqa qoʻshni mamlakatlar dasturlariga nisbatan keskin boʻlmasa-da, ammo bilimlarga yuqori talab qoʻyiladi.

Matematik taʼlim mazmunini zamonaviylashtirishning boshqa yoʻnalishi taʼlimda informatikaning yangi imkoniyatlari va texnika vositalaridan foydalanishga bogʻliq. Kalkulyator va kompyuterlarning axborotni qayta ishlash hamda muammoni echish va tadqiq etish vositasi sifatida qoʻllanilishi taʼlim texnologiyasidagi asosiy qoʻllash sohalaridan biridir.

Matematik taʼlim boʻyicha oʻtkazilgan V Xalqaro Kongressda mikrokompyuterlar nima: “Moʻjizami yoki tahdid?” degan savol muhokamaga qoʻyilgan boʻlsa, matematik taʼlim boʻyicha VI Xalqaro Kongressda mikrokalkulyator va kompyuterlarning keng tarqalishi alohida boʻlimlar roliga ortiqcha baho berishga, xususan, geometriya va matematik statistika rolining ortishiga olib kelishi eʼtirof etildi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Alinov, O.R.Xolmuhammedov, M.A.Mirzaxmedov. 9-—algebra 2006- yil
2. R.H. Vafoyeu, J.H. Husanov, K.H. Fayziyev, Yu.Y. Hamroyev. “Algebra va analiz asoslari”. Toshkent “Oʻqituvchi” 2003
3. J.Gʻ.Yoʻldoshev. “Oʻzbekiston respublikasi talimi- taraqqiyot yoʻlida Toshkent “Oʻqituvchi” 1994 y



MATEMATIKA O'QITISHNI TASHKIL QILISHNING DARSDAN TASHQARI SHAKLLARI

Olimova Muqaddam O'rinovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
(+998919230712)

Annotatsiya: Matematikadan «sinfdan tashqari ish» deyilganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi.

Kalit so'zlar: Sinfdan tashqari ish, o'qitish, muammoli vaziyat, miqdorlar, o'lchovlar, matematik birliklar.

Matematikadan sin/dan tashqari ishlarning mohiyati va uning turlari Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi. Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi: Matematik to'garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish. Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish; matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan ma'lumotlarni etishmaydigan yoki berilgan ma'lumotlarni ortiqcha masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar tarixiy ma'lumotlar berish va boshqalar kiradi. Maktab amaliyotida hozir quyidagilar uchraydi: matematik minutliklar, soatliklar, matematika kechalari, matematika to'garaklar, ertaliklar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalar.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.
2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.
3. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimlilikining murakkabligidir. Matematik to'garak matematikadan tizimli sinfdan tashqari ishning eng ko'p tarqalganidan biri. Uning asosiy vazifasi - matematikaga alohida qiziqish ko'rsatgan o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish.

Xulosa: Matematika darslarini qiziqarli tashkil etishda, o'quvchilarni bilimlarini yanada boyitishda sinfdan tashqari ishlarning o'rni kattadir. Shuning uchun sinfdan tashqari ishlardan unumli foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» M.E.Jumayev. Z.G'.Tadjiyeva
2. Internet ma'lumotlari.



SURUNKALI SOMATIK KASALLIKLARDA O'SMIRLAR XAYOT SIFATINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Qo'chqarov Sherzod

Urganch davlat universiteti

Qo'chqarov Bekzod

O'zbekiston Milliy universiteti

Nurjonova Gulnoza

UrDU, Psixologiya 1-kurs Magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar va o'smirlar o'rtasida uchraydigan samatik kasalliklarining ko'payishi, psixologik omillar va yoshlarni turmush tarzidagi o'ziga xosligi, kasallik sharoitida o'smirning hayot sifati uning hayotining integral xarakteristikasi, shu jumladan jismoniy, psixologik va ijtimoiy faoliyati, shuningdek sub'ektiv idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: somatik kasalliklar, rehabilitatsiya, tibbiyot, texnologiyalar, o'smirning hayot sifati, sub'ektiv, psixologik, ijtimoiy, jismoniy, shaxsning shakllanishi, debyuti, stress, fenomeni, o'smirlik davri, o'z-o'zini ongni shakllantirish.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida kasallanishni ko'payish masalalarining dolzarbligi hozirgi vaqtda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, balog'atga etmagan bemorlarda surunkali somatik kasalliklar diagnostikasining chastotasi oshishi kuzatilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, davolash va rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorligini baholashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu bemorlarning hayot sifati darajasidir.

Tibbiyot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va tibbiy yordam sifatining yaxshilanishiga qaramay, bemorlar davolanish natijasida o'z hayotlaridan har doim ham mamnun emaslar.

A. A. Novik va T. I. Ionova (2013) tomonidan hayot sifatining ta'rifi tayanamiz. Shunga ko'ra, kasallik sharoitida o'smirning hayot sifati uning hayotining integral xarakteristikasi, shu jumladan jismoniy, psixologik va ijtimoiy faoliyati, shuningdek sub'ektiv idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar kasallikning bemorlarning hayotiga katta hissa qo'shganligini ko'rsatadi. Qanday bo'lmasin, kasallik debyut yoshidan qat'i nazar, hayot uchun maxsus shartlarni belgilaydi. Bolalik va o'smirlik davrida u doimo shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Surunkali somatik kasallikning debyuti bolani ham, uning butun oilasini ham yangi, maxsus sharoitlarga qo'yadi.

So'nggi tadqiqotlar stresslilik fenomenini birinchi o'ringa qo'ydi tashxis qo'yish. Bolaning tajribasining intensivligi turli omillarga, jumladan, uning yoshiga, kasallikning og'irligiga, ma'lum bir kasallik haqida mavjud bilimlarga va ota-onalarning reaksiyalariga bog'liq. Biroq, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tashxis qo'yish sharoitida stress darajasi travmadan keyingi stress buzilishining klinik ko'rinishi bilan taqqoslanadigan reaksiyalarga erishishi mumkin va bolaning ruhiy moslashuvining turli belgilarining paydo bo'lishi istisno qilinmaydi.

O'smirlik davrida surunkali kasallikning boshlanishi butunlay boshqacha tendentsiyalarni belgilaydi. Ular kelajak istiqbollarini shakllantirish jarayonlari, shuningdek, ajralib chiqish va o'z-o'zini ongni shakllantirish jarayonlarini aktuallashtirish bilan o'zaro bog'liqdir. Tashxis qo'yish holatida o'smir hissiy shokni boshdan kechiradi, bu shaxsiyat rivojlanishining ushbu bosqichida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tengdoshlari bilan muloqot qilishda mumkin bo'lgan cheklovlar haqida tashvishlanishdan kelib chiqadi. Ushbu bosqich uchun begonalashish, yolg'izlikning eng xarakterli tuyg'ulari.

Bundan tashqari, bu erda alohida rol o'ynaydi, bu yoshda bir oz realizmga ega bo'lishni boshlaydigan kelajak uchun rejalarning qulashi. Shu munosabat bilan, o'smirlik mavjud kasallikning kuchayishini ko'proq tashvishli idrok etish bilan tavsiflanadi. Kelajak noaniq, qo'rqinchli bo'ladi, ko'p qo'rquvlarni keltirib chiqaradi, bu ko'pincha o'smirning kasallik bilan bog'liq cheklovlarni bilishi bilan bog'liq.

Hayot sifatining qoniqarli darajasiga erishishning mumkin emasligi, shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonchsizlik darajasining pasayishi bilan bog'liq. Biz ishonamizki, bu holda o'z-o'zini hurmat qilish darajasi va profili o'rtasidagi munosabatlar hayot sifatiga ta'sir qiladi va hissiy o'zini o'zi boshqarish jarayonlari bilan bog'liq yagona mexanizm sifatida amalga



oshiriladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik moslashuvning buzilishi surunkali somatik kasallikning mavjudligining majburiy natijasi emas. Ba'zi hollarda mobilizatsiya va aqliy tartibga solishning kompensatsion jarayonlarini kiritish qayd etilgan boshqa tendentsiya aniqlanadi.

Kasallikning holatlari, masalan, o'smirni kasallik tufayli yuzaga keladigan to'siqlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan kognitiv faollikka undashi mumkin. Shu bilan birga, o'smir uchun mavjud bo'lgan hayot sohalarida o'zini o'zi anglash uchun motivatsiya safarbar qilinadi.

Kasallik bilan kurashishning o'ziga xos xususiyatlari qiyin hayotiy vaziyatlarga duch kelgan o'spirin bilan kurashishning odatiy usullariga bog'liq bo'ladi. Hayotda yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan o'smir ota-onasidan yordam so'rashi tabiiy. Biroq, ota-onalarning o'zlari moslashish qobiliyatining pasayishiga duch kelishlari mumkin, bu esa zarur yordamning etishmasligi tufayli o'smirning ahvolini og'irlashtiradi.

Kasallik sharoitida bolalar va o'smirlarning hissiy, shaxsiy xususiyatlari va hayot sifatini tavsiflovchi juda ko'p sonli zamonaviy tadqiqotlarga qaramay, surunkali kasalliklarga chalingan o'smirlarning hayot sifati kontekstida psixologik omillarni tavsiflovchi tadqiqotlar etishmaydi. somatik kasalliklar.

Stress (ing . stress — bosim, kuchlanish, tanglik) - odam va hayvonlarda kuchli ta'sirotlar natijasida sodir bo'ladigan o'ta hayajonlanish, asabiylik holati. Organizmda har xil ta'sirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya. “Stress.” terminini kanadalik patolog G. Selye ta'riflab, tibbiyotga kiritgan (1936). Olim stress holatiga olib keluvchi omilni stressorlar deb, ular ta'sirida organizmda ro'y beradigan o'zgarishlarni moslashish (adaptatsiya) sindromi deb atadi. Fizik (issiq, sovuq, shikastlanish va boshqalar) va psixik (qo'rquv, qattiq tovush, o'ta xursandchilik) stressorlar ajratiladi. Organizmda bu omillar ta'sirini yengishga qaratilgan moslashuvchi biokimyoviy va fiziologik o'zgarishlar rivojlanadi, bu stressorning kuchi, ta'sir etish muddati, odam yoki hayvonning fiziologik sistemasi va ruhiy holatiga bog'liq. Nerv sistemasi yuqori rivojlangan odam va hayvonlarda, his-tuyg'u ko'pincha stressor vazifasini o'taydi va u fizik stressor ta'siriga zamin tug'diradi. Odamda bir xil kuchdagi stress ham xavfli, ham ijobiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun ma'lum bir darajadagi Stresslarsiz faol hayot kechirib bo'lmaydi, chunki stresslar bo'lmazligi bu o'lim bilan barobar degan edi G.Selye. Demak, stresslar nafaqat xavfli, balki organizm uchun foydali ham bo'lishi mumkin (eustress), bu holat organizm imkoniyatlarini ishga soladi, salbiy ta'sirotlarga chidamliligini oshiradi (masalan, infeksiyalar, qon yo'qotish va boshqalar), ma'lum bir somatik kasalliklar (mas, yara kasalligi, allergiya, yurak kasalliklari va boshqalar) kechishini yengillashtiradi yoki bemorning ulardan form bo'lishiga yordam beradi. Zararli Stresslar (distress) organizm rezistentligini pasaytiradi, ko'pgina kasalliklarning kechishini og'irlashtiradi. Stress ta'sirida kasalliklar paydo bo'lishida organizmning dastlabki holati katta ahamiyatga ega. Mas, gipertoniya kasalligi bilan og'rikan bemorda Stress og'irroq, ya'ni gipertonik krizislar bilan kechadi.

G. Selye, Stress natijasida rivojlanadigan kasalliklar yo stressorning kuchli ta'sir etishi, yoki gormonal tizimning “noto'g'ri” reaksiya berishiga bog'liq deb hisoblagan. Chunki ayrim hollarda distress uncha kuchli bo'lmagan stressor ta'sirida yuzaga keladi. Stressning organizmga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi organizmning ushbu stressorga nisbatan reaksiyasiga bog'liq. Stress xolatini faol o'zgartirishga qaratilgan choralar organizm chidamliligini oshiradi va natijada kasallik rivojlanmaydi yoki, aksincha, faol kurashish bo'lmasa, moslashish sindromi susayib, og'ir holatlarda organizmni nobud bo'lishigacha olib kelishi ham mumkin. Organizmdagi hamma o'zgarishlarni nazorat qilishda miyadagi katexolaminlar miqdori katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, nerv sistemasi organizmning Stressga reaksiya berish holatini belgilaydi (qarang Neyrogumoral regulatsiya).

Hozirgi “Stress” termini juda keng ma'noda tushuniladi, mas, nerv sistemasi bo'lmagan quyi hayvonlar, hatto o'simliklarda ham suv miqdori yoki harorat keskin o'zgarsa, ularda kechayotgan fiziologik jarayonlar buziladi.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida kasallanishning o'sishi bilan bog'liq muammolar hozirgi vaqtda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Buni so'nggi o'n yillikdagi statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Voyaga etmagan bemorlar surunkali somatik kasalliklardan ko'proq azob chekishadi. Shu bilan birga, ko'plab kasalliklar sezilarli darajada “yoshroq” va avvalroq kechroq namoyon bo'ladigan yosh davrlarida aniqlanadi ontogenez bosqichlari (Dedov I.I. va boshqalar). Shu bilan birga, baholashning eng muhim ko'rsatkichi tibbiy muassasalar sharoitida davolash va reabilitatsiya



tadbirlari sifatining samaradorligi bemorlarning hayot sifatining ko'rsatkichidir. (Yuriyev V.K., Sayfulin M.X.) Zamonaviy sharoitda shaxsiylashtirilgan tibbiyot dasturlarini ishlab chiqish tobora ko'proq samarali tibbiy yordam ko'rsatmoqda hayot davomiyligi. Terapevtik va rekreatsion tadbirlarga qaratilgan surunkali kasalliklarga chalingan odamlarning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash; voyaga etmaganlarning hayotini normallashtirishga hissa qo'shish. Lekin, davolanish natijasida jismoniy holati yaxshilanganiga qaramay, o'smir har doim ham hayotidan mamnun emas.

Adabiyotlar

1. Абросимов И. Н. Выбор копинг-стратегии как фактор психологической адаптации пациента к хроническому соматическому заболеванию / И. Н. Абросимов, В. М. Ялтонский // Вестник Омского университета. Серия «Психология». - 2018.
2. Агеева-Подобед И. Б. Психологическая и социально-культурная адаптация детей к условиям стационарного лечения / И. Б. Агеева-Подобед // Педиатрический вестник Южного Урала. - 2014.
3. Александрова О. В. Психологические особенности детей и подростков в восприятии ими болезни на разных этапах ее течения / О. В. Александрова, А. Е. Ткаченко, И. В. Кушнарева // Педиатр. - 2018.
4. Shamdiev E.C., Tursunhodjaeva L.A, «Psihoterapiya»-T.:2011.



МАКТАБДА SAMARALI O'QITISH TIZIMINI YARATISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING AHAMIYATI

Hakimova Ra'no Maxmudovna
Mirzaulikova Feruza Mirzahamdovna
Farg'ona viloyati Farg'ona shahar
26-o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot kommunikatsiyalarining hayotimizga kirib kelishi natijasid ta'lim tizimidagi tub sifat o'zgarishlar hamda zamonaviy ta'limni yaratishda masofaviy ta'limni keng ko'lamli joriy etishning muhim shartlari haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy innovatsion metodlar, talim metodlari, kompyuter aloqa, sun'iy yo'ldoshli televideniye, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy

Ilim-fan va texnika juda katta tezlikda taraqqiy topishi sababli XXI asr global axborot jadallik bilan ko'payishi yangidan-yangi texnologiyalar joriy etilishi natijasida, ta'limda ham tub sifat o'zgarishlar amalga oshirilishini davr taqazo etmoqda. Talim tizimida quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim: ta'limning eng yangi kashfiyot va loyihalar bilan hamnafas bo'lishi, innovatsiya va rivojlantiruvchi talim metodlaridan shaxs ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda keng foydalanish, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosiga qurilgan masofaviy ta'lim tizimidan foydalanish, bilim berishning zamonaviy usullaridan foydalanib ta'limning samaradorligiga erishish.

Hozirgi kunda keng qo'llanishini zamon talab qilayotgan masofaviy ta'lim tizimiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, masofali o'qitish - davlatda va xorijda aholining keng qatlamiga masofada turib o'quvchi va o'qituvchini o'quv axborotlar bilan almashinish vosita (kompyuter aloqa, sun'iy yo'ldoshli televideniye va sh.k.) larga asoslangan maxsus axborot-ta'lim muhiti yordamida ta'lim xizmatlar majmuasini taqdim qilishdan iborat. Masofali o'qitishning xususiyatlariga, birinchidan, o'quvchini o'qituvchidan uzoqdaligi; ikkinchidan, mustaqil o'qish - sirtqi o'qitish shaklining qandaydir varianti; uchinchidan, axborot vositalari va ashyolarini o'quv jarayoniga faol birlashishidir. Masofaviy o'qitish texnologiyasi standartlashtirilmagan. Eng ko'p tarqalgan ta'rif quyidagicha: masofaviy o'qitish texnologiyasi bu ta'limni belgilangan mazmunini nusxalab amalga oshirishga yo'naltirilgan usullar tizimi, maxsus vositalarning, o'qitish shakllarining majmuasidir.

Ushbu tizim haqida fikr borganda, tarixga nazar tashlasak, masofali ta'limni dastlab buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy va boshqalar amalga oshirganlar. Ular boshqa shaharlardagi shogirdlariga xat orqali (chopar, kabutar yordamida) bilim va topshiriqlar berib turganlar. Ammo xat orqali axborot (ma'lumot) almashishga haftalab, oylab vaqt ketgan. Olimlar orasidagi bu an'ana telegraf, radio va televidenie kashf etilishigacha davom etdi. Hozirgi davrda esa, kompyuter texnikasi axborot telekommunikatsiyasi va internet tizimi asosida masofali ta'lim, xuddi o'qitishning kunduzgi shakli darajasidagidek amalga oshirilmoqda. Masofaviy o'qitish texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim axborotlarini taqdim etish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini uzatish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.

Yangi ta'lim texnologiyalaridan biri, uy sharoitlarida kompyuter yoki telekommunikatsiya yordamida boshqa davlatda joylashgan maktabda kurslarni o'tish imkoniyatini beradigan masofali o'qitishdir. Virtual ta'limda, shuningdek, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini ko'tarish kabi vazifalari ham mavjud va bu yerda an'anaviy ta'limda ham foydalaniladigan, tarmoq o'yinlari, virtual seminarlar, treninglar va hamkorlikdagi jamoaviy loyihalar va boshqa shu kabi psixolog-pedagogik texnologiyalar katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

Masofali ta'limda ham o'quvchilar xuddi kunduzgi o'quv shaklidagidek bir-birlari bilan telekommunikatsiya tizimi orqali o'zaro muloqotda bo'ladilar va maslahatchi (o'qituvchi)laridan yordam olib turadilar. Masofali o'qitishda o'quvchilarni onlayn (qachon axborot kerak bo'lganda, o'sha paytda axborot olish imkoniyatiga onlayn tartibi deyiladi) qo'llab-quvvatlash, chat va



forumlar, onlaynli axborot taxtalari, onlayn do`konlari va boshqa maslahat vositalari bo`lishi kerak. Masofali o`qitishni amalga oshiradigan o`quv yurtlari, asosan, ular tomonidan taklif etiladigan o`quv dasturlariga muvofiq ravishda tabaqalanadilar.

1. “Natural masofali universitetlar”. Bunday universitetlarning o`quv dasturlari shunday tuzilganki, ularni to`la o`tganlar bakalavr yoki magistr darajasini oladilar (masalan, AQSH, Ispaniya, Germaniyalarda bunday ta`lim muassasalarini ko`rish mumkin).

2. Malaka oshirish kurslari provayderlari. Bu muassasalarning asosiy dasturlari (o`quvchilarga sertifikat berishga mo`ljallangan bo`lib, o`quvchilarni kasbiy malakalarini oshirishga katta ahamiyat beradi).

3. Onlayn o`qitishni taqdim etuvchi universitetlar. Ushbu universitetlar o`zlarining o`quv dasturlar sonini ko`paytirib onlayn tartibida (rejimida) taqdim eta boshladilar.

Xulosa o`rnida aytishimiz mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ish jarayonida qulaylikka hamda yuqori ish sifatiga erishishimiz mumkin. Masofaviy o`qitish tizimi ham darsning qulay bo`lishi hamda sifatli ta`limni yaratish uchun xizmat qilmoqda. Rivojlangan davlatlar ta`lim tizimida keng qo`llanib kelinayotgan tizimdan biz ham hozirda foydalanishga o`tmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.ziynet.uz
2. www.marifat.uz



INGLIZ TILIDA SHAXSIYLASHTIRILGAN NOMINATIONS SHAKLLANISHNING ASOSIY KOGNITIV MEKANIZMLARI.

Ruzmetova Dilnoza Shavkatovna

Urganch shahar 37-son ko'p tarmoqli
ixtisoslashtirilgan maktabgacha
ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Ismoilova Bibirajab Baxtiyarovna

Urganch shahar 26 sonli maktab
ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsiylashtirilgan nominations shakllanishning asosiy kognitiv mexanizmlari taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: motiv, metafora, emotsional, Mosquito, sub'ektiv idrok, metaforik o'tkazish.

Nominatsiyadan oldin motivatsiya mavjud bo'lib, u voqelik ob'ektlari va hodisalarini nomlash harakati uchun shart bo'lib, “motiv” atamasi nomning asosini tashkil etgan belgini anglatadi.

Ko'pincha taxalluslar qayta ko'rib chiqish yoki semantik hosila (metafora, metonimiya) natijasida paydo bo'ladi. Ikkilamchi nom berishda u ob'ektiv sifatlaridan qat'i nazar, boshqa shaxsni sub'ektiv idrok etish natijasida paydo bo'ladigan fazilatlar bilan taqqoslanadi, farqlanadi, taqqoslanadi yoki bog'lanadi.

Differentsial atributlar (+) yoki (-) belgisi bilan hissiy baholash bilan tavsiflanadi. Binobarin, taxalluslar yorqin emotsional va ifodali bo'lib, emotsional va baholovchi funktsiyaga ega. Ular ob'ektiv voqelikning o'rganilgan va tanlangan faktlarining hissiy va baholovchi tasvirlarga o'tish jarayonini aniq ko'rsatib beradi.

Taxalluslarda aniqdan mavhumga va u orqali yana hissiy konkretlikka, ob'ektiv ko'rinadiganga doimiy harakat mavjud.

Nomzodning nomzodga bo'lgan hissiy-bahoviy munosabatining tabiatiga kelsak, sportchilarning taxalluslari orasida meliorativ - ma'qullaydigan, ko'taradiganlar ajralib turadi. Mashhur sportchilarning ma'qullash natijasida vujudga kelgan metaforik o'tkazish yo'li bilan shakllangan ko'plab taxalluslari og'zaki qarsaklarga o'xshaydi: The Greatest (Muhammad Ali) – sifat sifatdoshi eng buyuk (sifati bo'yicha eng yuqori) ijobiy baho ko'rsatkichi vazifasini bajaradi; Ajoyib (Marvin Xagler) - maqto'v ijobiy ma'noli ajoyib (g'ayrioddiy yaxshi yoki ajoyib) bilan sifatli sifatdosh yordamida aytiladi; Sehrli odam (Antonio Tarver), Sehrli (Ervin Jonson), Superman (Aaron Devis, Tim Xorton), - ijobiy his-tuyg'ularni baholash sehrli sifat (ega yoki g'ayritabiiy kuchlarga ega yoki ulardan foydalanish yoki ularga xos yoki tegishli) va supermen otlari orqali shakllanadi. (katta kuch va qobiliyatga ega bo'lgan shaxs); Super (Zab Judah) - super (juda yaxshi, eng yuqori sifat) sifatleri muxlislarning eng yuqori maqto'vini bildiradi.

Ikkilamchi nom berish ekstralingvistik omillar - kasb, yashash joyi, tashqi ko'rinish, xarakter va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos asosga ega.

Demak, metaforik (o'xshashlik asosida) nomlar, jumladan: tabiat hodisalari nomiga asoslangan taxalluslar: Dan Majerle - Thunder Dan, Howie Meeker - Hurricane Howie, Corb Denny - Flash, Fred Taylor - Cyclone, Richie Anderson - The Avalanche, Clarence Perry - Earthquake, Ron Low - Tide, Rubin Carter - Hurricane, Arturo Gatti - Thunder, shular jumlasidandir.

Taqdim etilgan guruhdagi leksik ma'noni qayta ko'rib chiqish kontseptual sohalarning metaforik ko'chirilishi bilan tavsiflanadi: TABIAT HODISASI→INSON. Bir nechta taxalluslarning paydo bo'lishining manbai turli xil tabiat hodisalari bo'lib, ularda qandaydir assotsiativ xususiyat, masalan, nomlashda namoyon bo'ladi Hurrican sportchining kuchi va kuchi halokatli tropik siklon bilan taqqoslanadi va sarlavhada Thunder - sportchining qobiliyati chaqmoq urishi natijasida paydo bo'ladigan portlovchi kuchning ovozi bilan tavsiflanadi.

Odamning har qanday hayvon, qush bilan o'xshashligini aks ettiruvchi taxalluslar. Turli xil assotsiativ bog'lanishlar “hayvon” turkumidagi so'z “inson” toifasiga kirganda, ko'plab taxallus nominatsiyalarining paydo bo'lishiga olib keladi: “The lion” (Lennox Lewis) 2002 yilda afsonaviy Temir Maykni mag'lubiyatga uchratganidan keyin boks muxlislarning xayrixohligini oldi. Bokschi shaxs xislatlarini berish mard, iste'dodli va yengilmas shaxsning yorqin timsolini yaratadi. Ikkilamchi nomlashda “The Black Mamba” (Mayweather) ilonning xarakterli



xususiyatlari kontseptuallashtirilgan - xavf va harakat tezligi (black mamba - a highly venomous southern African mamba dreaded because of its quickness and readiness to bite). Golfchi Ben Xogan o'zining noyob qobiliyatlari bilan raqiblarini qo'rqitdi, shuning uchun u taxallusni oldi. The Hawk, leksema qayerda the hawk har qanday vaqtda o'z qurboniga zarba berishga tayyor, qattiqqo'l, kuchli sportchining qiyofasini aks ettiradi.

Ispaniyalik tennischi Karlos Ferrero ismini qo'yishdagi metaforik transferning markazida - “Mosquito” - chivinning tashqi xususiyatlarida o'xshashlik - favqulodda tezlik va aniqlik. “Juan Carlos Ferrero is fondly known as the «Mosquito» in the world of Tennis. Like a mosquito, JC Ferrero is fast on-court and has a strong and wiry physique. This might not look like the build of a typical tennis player but it is this physique coupled with talent that skyrocketed JC Ferrero's career”.

Tennisning yana bir taniqli arbobi, karerasi nafaqat Britaniya jamoatchiligi, balki mashhur amerikalik yozuvchi Jerom Devid Selinjer tomonidan ham diqqat bilan kuzatilgan Tim Xenman sport tarixiga “Yo'lbars” nomi bilan kirdi. Uning maydondagi dadil va mahoratli harakatlari yo'lbarsga qiyoslandi (“he's a tiger on the tennis court”). Bunday qayta toifalash hayvonlarning boshqa shaxsni sub'ektiv idrok etish natijasida paydo bo'lgan sifatlarini, birinchi navbatda, tashqi o'xshashlik yoki xulq-atvor xususiyatlariga ko'ra solishtirganda yoki ularga tegishli bo'lganimizda sodir bo'ladi.

Metonimik ko'chish yo'li bilan hosil qilingan taxalluslar o'zining shakllanish xususiyatiga ko'ra – qo'shnilik asosida ob'yektning tafsilot xususiyatini ajratib ko'rsatish funksiyasiga yo'naltirilgan. Taxallus nominatsiyalarini yaratish mexanizmini tanlash nomzodni ko'rsatish paytida qanday nominativ vazifa bajarilganiga va qayta ko'rib chiqishda qanday motivatsion xususiyatlar yotganiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зайцева К. Б. Английская стилистическая ономастика: тексты лекций. Одесса: ОГУ, 2003. 68 с
2. Заботкина В.И. Новая лексика современного английского языка: Учеб. пособие для филол. фак. ун-тов. - М.: Высшая школа, 1999. - 124 с



PROFESSIONAL TA'LIMDA SIMULYATSIYALARDAN FOYDALANISH

Uralov Sirojiddin Axmadaliyevich,
Pedagogik innovatsiyalar instituti doktoranti
Telefon: +998944952901
usammm@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar, simulyatsiyalar va ulardan ta'limda samarali, bosqichma-bosqich foydalanish, ularni ta'lim sifat va samaradorligini oshirishdagi roli hamda ahamiyatli jihatlari haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, simulyatsiyatordan foydalanish va o'rgatuvchi simulyatsiyalar.*

Hozirda, ish faoliyatda xodimlar kasbiy faoliyat yuritishda yuzaga kelayotgan ko'plab savollarga turli yo'llar bilan, xususan, korporativ standartlar yoki kerakli adabiyotlardan foydalanib, ustozlar bilan tajriba almashish, o'z ko'nikmalarini treninglarda, video-kurslarni o'rganib rivojlantirib borgan holda javob olishlari mumkin.

Biroq, o'rganuvchilar uchun eng yorqin va esda qolarli shunday uslub mavjudki, u boshqa o'qitish uslublarining ijobiy tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan. Bu uslub o'rgatuvchi simulyatorlardir. Simulyatsiya — bu mazmun jihatdan shunday kompyuter dasturiki, unda mavjud holatlardan to'g'ri variantlarni topish orqaligina g'oliblikka erishish mumkin. To'g'ri tanlov qo'shimcha ball olish va keyingi bosqichga o'tish imkonini beradi. An'anaviy nazariy bilimlar beruvchi elektron kurslardan farqli ravishda, simulyatsiya kurslari «xatolar ustida ishlash» imkonini beradi. Bu esa foydalanuvchiga ish joyida xato qilishning oldini oladi[1].

O'rgatuvchi simulyatsiyalar bu shunday virtual vositalarki, ular yordamida turli xil ko'nikmalar egallanadi. Ular turli sohalarda foydalanilishiga qaramasdan, asosan biznes haqidagi bilimlarni va menejment bo'yicha ko'nikmalarni oshirishda qo'llaniladi. Simulyatsiya deb, kompyuter yoki boshqa texnologiyalar orqali hayotiy jarayonlarga taqlid nazarda tutiladi. Ular haqiqiy hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Simulyatsiya ishlab chiqarish olamidagi sohalarni o'qitish jarayonida eng samarali va ishonchli uslub hisoblanadi, biroq shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'rgatuvchi simulyatsiyalar faqatgina o'yin emas, ularning maqsadi esda qolarli yo'llar bilan o'qitishdan iborat.

O'rgatuvchi simulyatsiyalar — bu mustahkam ishlab chiqilgan, tekshirilgan qoidalar, topshiriqlar va strategiyalar bilan tizimlashtirilgan ssenariylar bo'lib, ular foydalanuvchining maxsus ko'nikmalarini rivojlantirish uchun loyihalashtiriladi. Simulyatsiyalar orqali o'zlashtirilgan ko'nikmalar foydalanuvchi tomonidan real hayotda qo'llanilishi mumkin. Insonlar bilan bo'lgan jonli muloqotni, dasturiy ta'minot bilan ishini, ishlab chiqarish jarayonlarini va mexanizmlar ishini ham simulyatsiyalash mumkin.

O'quv maqsadlariga bog'liq holda simulyatsiyalar quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- kommunikatsion simulyatsiyalar;
- dasturiy ta'minot bo'yicha simulyatsiyalar;
- jarayonlar simulyatsiyalari;
- mexanizmlar ishi simulyatsiyalari.

O'rgatuvchi simulyatsiyalar eng ko'p tarqalgan joy — bu korporativ muhit hisoblanadi. Hozirda simulyatsion o'yinlardan yoshlarga ta'lim berishda keng qo'llanilib kelinmoqda. Ular yordamida maktab o'quvchilaridan magistratura talabalarigacha barcha ma'lum bir yo'nalishdagi soha bo'yicha o'z tajribalarini sinovdan o'tkazishlari mumkin bo'ladi. Bu esa ishtirokchilarga shu soha bo'yicha kengroq tasavvurga ega bo'lishlariga kelajakda zarur bo'ladigan ko'nikmalarga ega bo'lishlariga imkon yaratadi. Simulyatsiyalardan foydalanishdan maqsad «o'yinga kirishish emas», balki uning yordamida bilimga ega bo'lish va uni hayotga tatbiq etishdan iborat. Agar o'rgatuvchi simulyatsiyada raqobat yoki musobaqa elementlari bo'lsa, bu motivatsiya va g'oliblikka intilish hissini uyg'otadi[2].

Ko'pgina tashkilot va o'quv kurslari o'zlarida mavjud bo'lgan o'rgatuvchi simulyatsiyalarni turli ta'limiy dasturlar bilan integrallashtiradilar. Bu foydalanuvchilarga maksimal darajada tajriba orttirishga imkon yaratadi. Ta'lim sessiyalari tuzilishi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Kirish qismi — o'quv dasturi tashkilotchisi (ba'zida o'rgatuvchi simulyatsiyalar bo'yicha



mutaxassis ham) qatnashuvchilar bilan ko‘rishadi va treningni o‘tkazishdan asosiy maqsadni va ko‘zlangan natija bo‘yicha tushuntirish beradi.

- Ma’ruza. Tashkilotchi simulyatsiyalar asosidagi mavzular bo‘yicha ma’ruza qilishlari mumkin. Bu ishtirokchilarning bajarishlari kerak bo‘lgan vazifalari haqida ma’lum bir taassurotga ega bo‘lishlariga ko‘maklashadi.

- Simulyatsiya. So‘ngra simulyatsiyalarda ishlash vaqti keladi. Bunda qobiliyatlar sinovdan o‘tkazilib, ko‘nikmalar egallanadi. Darsning bu qismida ijobiy muhit va g‘oliblikka intilish asosiy rol o‘ynaydi.

- Baholash — simulyatsiya tugaganda amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, o‘qitish jarayoni samaradorligi va egallangan bilimlar bo‘yicha xulosalar chiqariladi. Natijalar va ishtirokchilar erishgan yutuqlari tahlil qilinadi.

Integrallashgan o‘qitish simulyatsiyalarda ishtirok etayotganlarga maksimal tajriba olish imkoniyati, kelajakda zaruriy malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish hamda o‘z sohalari bo‘yicha ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lishlari uchun zamin yaratdi[3].

Kompyuter simulyatsiyalarida bir vaqtning o‘zida ko‘plab insonlar o‘qitilishi boshqa usullardan ancha samaralidir. Taklif etilayotgan yechimlar nafaqat o‘quv jarayonini kompyuter o‘yinlarini o‘ynagandek qiziqarli qilishi, balki o‘qitishdan «qoniqish» hosil qiladi va o‘quv materiallari hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Eng muhimi - olgan bilimlarni amaliyotda qo‘llay bilish. Tadqiqotlarga ko‘ra an’anaviy ta’lim dasturlarida bu ko‘rsatkich 15 foizni, simulyatsiya formatida esa 63–75 foizni tashkil etadi. O‘rgatuvchi simulyatsiyalar imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- Anglab yetish. Ishtirokchilar bu ta’lim dasturida qatnashar ekanlar, shu simulyatsiya yaratilgan soha bo‘yicha nafaqat tushunchaga ega bo‘ladilar, balki uning mazmun mohiyatini anglab yetadilar.

- Vaqtning chegaralanganligi. Ko‘pchilik modellar shunday sessiyalarni o‘z ichiga oladiki, ularda shu muammoni yechish vaqt intervalida amalga oshiriladi. Bu esa ishchilar, bitiruvchilar mahoratini sinovdan o‘tkazishning eng yaxshi yo‘lidir

- Ishtirokchilar koordinatsiyasi. O‘rgatuvchi simulyatsiyalar ko‘pincha guruh yoki jamoa bo‘lib ishlashni taqozo etadi. Bu muloqot qilish samaradorligini va eng asosiysi raqobatni ta’minlaydi.

- Muammolar yechimi. O‘rgatuvchi simulyatsiyalarda asosan mushkul holatlar beriladiki, bu shu muammoni mantiqiy yo‘llar bilan yechishni taqozo etadi. Agar ishtirokchi shu 4 holatdan ham muvaffaqiyatli o‘tsa, o‘quv dasturining maqsadiga erishilgan bo‘ladi.

O‘rgatuvchi simulyatsiyalarning xususiyatlari. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usullar o‘quvchilarda mustakil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi[4].

Ta’lim jarayonida o‘rgatuvchi simulyatsiyalardan foydalanish nafaqat ta’lim samaradorligini oshirishga, balki, o‘quvchilarning o‘z sohalari mohiyatini anglab yetishga, ish faoliyatini boshlamay turib, ma’lum bir tajriba va ko‘nikmalar orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. www.ssih.org
2. <http://ssih.org/about-simulation>
3. <http://www.sim4training.com/obuchayuschie-simulyatsii/proekty.html>
4. www.simstudios.com



KIMYONI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Shodiyeva Dilfuza Shukurovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

4-maktab kimyo fani o'qituvchisi

(+998912451175)

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida yuqori sifat va samaradorlikka erishish ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qiladi. «Innovatsiya» iborasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «innovation» - «yangilik kiritish», «yangi g'oya» degan ma'nolarni bildiradi. Ta'lim sifatini yanada takomillashtirish uchun esa albatta zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish kerak.

Kalit so'zlar: Texnologiya innovatsiya, o'qitish jarayoni, Pinbort, insert, metallar, metallmaslar.

Innovatsion o'qitishda bilimlar vazifasi o'zgaradi. Ya'ni, avvalgi doimiy yod olishdan mantiqiy fikrlash, izlanishga o'tiladi. Bunday faoliyat o'quvchi faoliyatidagi ijodkorlikni rivojlantiradi. U o'z tengdoshlari va o'qituvchisi bilan o'zaro faol «sub'yekt-sub'yekt» munosabatlariga kirishadi. O'qitish jarayoni dinamik va barhayot jabha bo'lganligi tufayli ham unga yangilik kirishi va yangilanish amaliyotining davom etishi tabiiydir. Shuning uchun ham, sinalgan va samara beradigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zaruriy holdir. Kimyoni o'qitishda eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagilar hisoblanadi: suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar hisoblanadi. Bahs (munozara) - aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

-yangi bilimlarni shakllantirishda;

-o'quvchilar u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, ularning mohiyatiga kirishni ta'minlashda;

- o'quvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o'rgatishda;

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Blits-so'rov metodi so'rovda ishtirok etuvchilar o'rtasida psixologik kommunikativ aloqani o'rnatadi. Savollar so'rovchi tomonidan oldindan tuziladi. Savollar qisqa aniq javobni talab etadi. Bu metodda o'quvchilarga o'rganilgan butun mavzu va uning ma'lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo'yicha tuzilgan savollarga javob (og'zaki, yozma, jadval, diagramma) ko'rinishida taklif etiladi. Masalan: «Metallmaslar» mavzusi bo'yicha

Bilits so'rov: 1. Eng yengil metallmas. (Vodorod)

2. Gaz holatdagi qaysi metallmas eng og'ir? (Xlor)

3. Qaysi metallmas davriy jadvalda doimiy ro'yxatda emas? (Vodorod)

4. Qaysi metallmasning nomi hayotsiz degan ma'noni bildiradi? (Azot)

5. Napoleon qaysi modda birikmasi bilan zaharlangan? (Mishyak)

6. Qaysi metallmas sun'iy yo'l bilan olingan? (Astat)

Xulosa: ta'lim texnologiyasida usullarni, vosita va ta'limni tashkil etish shakllarini to'g'ri tanlash va samarali qo'llash katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meliboyeva. G.S «Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar»

2. Internet ma'lumotlari



BIR QIYMATLI MOSLIK O'YINI

To'rayev Jo'rabek Nurbek o'g'li

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani

69- umumta'lim maktabining matematika -
informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sohasida bo'layotgan yangi o'zgarishlar, qabul qilinayotgan qonunlar, o'qituvchilarga bo'lgan e'tibor haqida mulohaza yuritiladi. Shuningdek matematika darslarida qo'llash uchun yangi innovatsion metod haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: son, metod, ta'lim, islohot, o'qituvchi, o'quvchi, matematika, moslik, dars.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. So'ngi to'rt yilda maktab o'qituvchilarining oylik maoshi bir yarim barobar ko'payganligi, davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgan ustozlar soni oshib borishi, o'qituvchi tayyorlaydigan hisobotlar, qog'ozbozliklar soni keskin kamaytirilganligini o'zi ham ta'limning bu bosqichida ulkan ijobiy o'zgarishlarga zamin bo'ldi. Islohotlar o'zgarishlar natijasida respublika bo'yicha qariyb 15 ming nafar erkak o'qituvchi maktablarga qaytdi.

Maktab ta'limini tubdab yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda.

“Ta'lim - tarbiya bu bizning kelajagimiz hayot- mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz” dedilar 2022- yil 28- yanvardagi selektorda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Biz ta'limni yaxshilash, o'quvchilarga tushunarli tilda noan'anaviy darslar tashkil qilib o'quv samaradorlikni oshirsakgina prezidentimiz aytgan poydevorni mustahkam qo'ya olamiz.

Har bir o'qituvchi o'z darsida innovatsion texnologiyalardan foydalanib iloji boricha ta'limdagi innovatsion texnologiyalar qatorini boyitishi va o'zi ham o'z ustida ishlab o'ziga tegishli fanlarga oid yangicha dars o'tish texnologiyalarini joriy qilib darslar samaradorligini oshirishi kerak. Men ham bizga berilgan shunday imkoniyatlardan foydalanib barcha aniq fan o'qituvchilari uchun o'zimning “Bir qiymatli moslik” nomli metodimni tavsiya qilmoqchiman. Bu metodni mavzuni mustahkamlash qismlari, takrorlash darslarida foydalanilsa o'quvchilarning fikrlash doirasini o'stiradi, aqliy faoliyati va diqqatini oshiradi. Bu metodda doskaga sinfdagi o'quvchilar ismlari yoziladi.

Masalan:

№	Ism va Nomlar	Qiymati
	Odina	+
2	Afsona	-
3	Madina	* Ko'paytirish
4	Elomonbek	:
5	Jamshid	a^2 sonning kvadrati
6	Muxlisa	0
7	Fayozbek	2
8	Ulug'bek	4
9	Diyora	8
10	Abbos	6



11	Gulnur	$\frac{1}{2}$
12	Otabek	1
13	Sarvara	10
14	O'g'iloy	 ildiz ostida
15	Sarvar	3
16	Xayotxon	5
17	Fevral	7
18	Mart	9
19	Bahor	12
20	Lola	15
21	Yer	16
22	Maktab	18
23	Kitob	20
24	Daftar	24
25	Ruchka	25

O'quvchilarga bu metod haqida tushuncha berilgandan keyin o'quvchilar ismlari ketma- ketligini aytadi. Masalan: Kitob, Elomonbek, Ulug'bek. Shunda o'quvchilar Kitob(20), Elomonbek(:), Ulug'bek(4) ni bilgan holda $20 \div 4 = 5$ ni ya'ni Xayotxon deb javobini aytadi. O'qituvchi shu ketma - ketliklarni aytadi va o'quvchilarni baholay boshlaydi. Bu metodni 5, 6, 7 - sinf o'quvchilarga ildiz, sonlarni ko'paytirish, bo'lish, kvadrat mavzularida ko'proq shu metoddan foydalanilsa mavzularni mustahkamlashga yaxshi natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov.O.A.;Nazarov Sh.Q. Ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent 2012.
2. Umumta'lim maktablarining 5-6 sinf matematika fani darsliklari.
3. Internet saytlari.



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA SALOMATLIKNI TEJAYDIGAN TEKNOLOGIYALAR

Umirzaqova Nargiza Ne'matilloeyevna
Qo'shtepa tumani 42-maktab o'qituvchisi
Tel: 91-327-44-34

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining salomatliklarini tejaydigan texnologiyalar va ularning samarasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, metod, interfaol o'yinlar, ta'lim elementlari.

Salomatlikni tejaydigan texnologiyalar sinf faoliyatida ham, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham qo'llaniladi. O'z sog'lig'iga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish zamonaviy inson muvaffaqiyatining zaruriy shartidir. Salomatlikni tejash yondashuvini darsning barcha bosqichlarida kuzatish mumkin, chunki u faoliyatning aniq almashinuvini ta'minlaydi. Bugungi kunda bizning vazifamiz bolaga sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash uchun turli xil texnika va usullarni o'rgatishdir.¹ O'quvchilar oldiga aynan shu maqsadni qo'yib, darslarni o'tkazish kerak bo'ladi: sog'likni qanday saqlash va mustahkamlash kerak? Buning uchun salomatlikni tejaydigan ped-texnologik usullaridan foydalanish lozim.

1. O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim elementlarini kiritish:

- Ish kuniga kirish.

1-sinf dan boshlab, bolaning maktab kuniga kirishini tezlashtirish uchun bolalarni tez-tez tabassum qilishga o'rgatish kerak. Bizning qoidamiz: “Agar siz do'stlashmoqchi bo'lsangiz, tabassum qiling!”

Tug'ilgan kun bilan tabriklashda har bir kishi faqat tug'ilgan kuni nishonlanayotgan bolaning ijobiy fazilatlarini nomlaydi.²

- Tanlov va muvaffaqiyat vaziyatini yaratish.

Sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qulay hissiy va psixologik mikroiklimni yaratish ham muhim rol o'ynaydi.³

- Refleksiya texnikasidan foydalanish.

- Sizda nima katta taassurot qoldirdi?
- Nima yaxshi ishladi?
- Qaysi topshiriqlar eng qiziqarli bo'lib tuyuldi?
- Qiyinchiliklarga nima sabab bo'ldi?
- Nima haqida o'ylashni xohlaysiz?
- O'zingizga qanday maslahat bergan bo'lardingiz?

Kim iltifot qilishni xohlaydi?

- Bugungi darsdagi bilim kelajakda sizga foydali bo'ladimi?

2. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan foydalanish.

3. Ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish.

Xulosa:

Ta'lim va o'quv jarayonida sog'liqni saqlashni tejaydigan texnologiyalardan kompleks foydalanish kichik yoshdagi o'quvchilarning charchoqlarini kamaytirish, hissiy kayfiyatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga yordam beradi va bu, o'z navbatida, ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashga muhim hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda: “Bolani aqlli va zukko qilish uchun uni kuchli va sog'lom qilish darkor”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T. G'afforova. “ Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedtexnologiyalar”. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent – 2011.

2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: TDPU, «Nizomiy»,

1 T. G'afforova. “ Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedtexnologiyalar”. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent – 2011. B. 47.

2 Хижнякова О. Современные образовательные технологии в начальной школе. – С. 2006. С. 141.

3 <https://zhuksch2.edumsko.ru/collective/method/post/628116>



2003

3. Хижнякова О. Н. Современные образовательные технологии в начальной школе. – С. 2006.

4. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. — T.: «Turon-Iqbol», 2006

5. ФОРМИРОВАНИЕ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ПРОФЕССИЯХ. Екатеринбург. 2019

6. <https://zhuksch2.edumsko.ru/collective/method/post/628116>



O 'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING BOSHQA O'QUV PREDMETLARI BILAN BOG'LIQLIGI

Xolmurotova Xafiza Yaxshimurotovna
Urganch shahar 11- son umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini o'stirishning boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liqligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar; o'quvchi, boshlang'ich sinf, nutq, bayon qilish, talaffuz, predmet.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va talaffuz qilishishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olm osh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar. Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Matematika darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani yechishda savolga to'liq javob berishga, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bular, o'z navbatida, o'quvchilar nutqini boyitish va faollashtirish vositasi hisoblanadi.

Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala echish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida „*Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?*“ masalasini tuzadi. Bu masalani echishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani echish uchun aniq izchillikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar.

Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi.

Adabiyotlar;

1. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova. „Ona tili darslari (1 –sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma). - T.: 1999.
2. Q. Abdullayeva va boshq. Savod o'rgatish metodikasi. - T.: „O'qituvchi 11, 1996.



MATEMATIKANI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Yusupova Xavajon

Urganch shahar 11-son umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada muammoli ta'lim va uning mohiyati, uni matematikadagi o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, texnologiya, matematika, izlanish, fikr.

Muammoli jarayon – o'zining yechilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda o'quvchidan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o'shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda o'quvchilar e'tibori savollarning yechilishiga to'liq yo'naltiriladi, o'quvchilarning fikrlashi moyil qilinadi (to'g'irlanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi.

Muammoli ta'lim maqsadi – o'qituvchi tomonidan taklif etilgan, maxsus bilim orttirishga xizmat qiladigan masala – muammoni o'quvchilar o'z aqlidroklari bilan yechishdan iborat. M.I. Maxmutov muammoli ta'limni quyidagicha tavsiflaydi: muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalar va talabalarni tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish, talab v.x.k) tizimi. Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarni o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil - muammolilikka tayanadi.

Muammoli o'qitishni tashkil etishda o'qituvchi o'quv materialini: monolog; fikr yuritish va muhokama qilish usulida; dialogli bayon qiladi. Topshiriqlarni: evristik; tadqiqotli va programmali usullarda beradi. Monologli bayon etish. O'qituvchi muammoli vaziyat sharoitida o'z ma'ruzasida yangi tushunchalar, faktlarning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, talabalarga fanning tayyor xulosalarini aytib beradi. Fikr yuritib bayon qilish metodi. Birinchi variant – o'qituvchi muammoli vaziyat yaratib, bor materialni tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi, fikrlarni umumlashtiradi. Ikkinchi variant – o'qituvchi mavzuni bayon etishi borasida darsni suhbat – ma'ruza shaklida olib boradi. Bunda bilim orttirish jarayonining mantiqiy asosida fikr yuritib, ilmiy izlanishning sun'iy mantiqini yaratadi. Dialogli bayon metodi. Bunda o'qituvchi guruhdagi talabalar bilan muloqatda bo'ladi. O'qituvchi o'zi yaratgan muammoli vaziyatda muammoni o'zi qo'yadi va uni talabalar yordamida echadi. Talabalar muammoni qo'yishda, taxminlarni oldinga surishda va gipotezalarini isbot etishda faol qatnashadi. Dars izlanishli suhbat, bayon shaklida olib boriladi. Talabalarning faoliyatida o'qitishning reproduktiv va qisman-izlanish metodlari majmui mavjud bo'ladi. Evristik topshiriqlar metodi. Bunda yangi qonuniyatlarni, qoidalar o'qituvchi tomonidan, talabalarning ishtirokida ham emas, balki talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligida ochiladi. Bu metod evristik suhbat borasida muammoli masala va topshiriqlarni yechish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tadqiqotli topshiriqlar metodi. O'qituvchi talabalar oldiga yuqori darajada muammoli nazariy va amaliy tadqiqot topshiriqlarini qo'yadi. Talaba mustaqil mantiqiy fikr yuritib, yangi tushuncha va yangicha yondoshish usulining mohiyatini ochadi. Tadqiqot ishlarini tashkil etish shakllari turlicha bo'lishi mumkin: tajriba, faktlarni yig'ish, doklad tayyorlash, modullash. Programmalashtirilgan topshiriqlar metodi. Bunda talabalar maxsus tayyorlangan didaktik vositalar yordamida yangi bilimlar oladi. Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, shunda talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi.

Qo'yilgan muammoni yechishning ishchi bosqichlarini quyidagi tahminiyl ketma-ketlikda ko'rsatish mumkin: 1. Muammoni yechishning umumiy yo'li va bosqichlarini o'ylab ko'ring. 2. Eng avval ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan muammo bo'laklarini (yagona muammoni tahlil etish



natijasida aniqlanadigan tarkibiy qismlarni) tanlab oling. SHundan keyin ularni ketma-ket ko'rib chiqing. 3. Qanday faktlar vaziyatli masala, topshiriqni yechishda yordam berishi mumkinligini o'ylab ko'ring. 4. Faktlarni olishga qulay bo'lgan manbalarni tanlab oling. Qanday axborot kerakligini aniqlang, shundan keyin birinchi navbatda tadqiq etish lozim bo'lgan ma'lumotlarni ajratib oling. 5. Muammoni yechishga kalit bo'ladigan turli fikr va g'oyalarni taklif eting. 6. Muammoni yechishga ko'maklashuvchi g'oya-fikrlarni tanlab oling. 7. G'oya-fikrlarni tekshirish va amalga oshirishning barcha imkoniyatlarini o'ylab ko'ring. 8. Tekshirishning eng maqbul yo'llarini tanlab oling. Tekshirishning eng maqbul yo'llarini tanlaganda, eng avval isbotlab bo'linganlarini tekshirish olish kerak. 9. Yechimni amalga oshirishga ko'maklashuvchi yoki to'sqinlik qiluvchi barcha mumkin bo'lgan tasadifiyliliklarni ko'z oldiga keltiring. 10. Uzil-kesil yechimni va uni amalga oshirish-bajarish yo'lini tanlang.

Bilish jarayonida aniq qo'yilgan savol yoki savollar kompleksi odatda muammo, bilish esa bir savolga topilgan javob yordamida ikkinchi bir savol javobga o'tish ketma-ketligi deb tushuniladi. Har qanday izlanish esa odatda «muammo» «izlanish» «yechim» ko'rinishidagi ketma-ketlik orqali ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, aniq, ravshan qo'yilgan muammo uni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Matematika fanlarini o'rganishda qanday turdagi muammolarni ko'proq hal etishga to'g'ri kelishini bilish uchun muammolar qanday ko'rinishlarda uchrashi haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Muammolarni quyidagi uchta belgi orqali turlarga bo'lish mumkin : muammo avvaldan ifodalanganligi; bu muammoni hal etish uslubining mavjudligi; yechim haqidagi tasavvurning qanchalik to'liqligi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Alinov, O.R.Xolmuhammedov, M.A.Mirzaxmedov. 9—algebra 2006- yil
2. R.H. Vafoyev, J.H. Husanov, K.H. Fayziyev, Yu.Y. Hamroyev. “Algebra va analiz asoslari”. Toshkent “O'qituvchi” 2003
3. J.G'.Yo'ldoshev. “O'zbekiston respublikasi talimi- taraqqiyot yo'lida Toshkent “O'qituvchi” 1994 y



ГЛОБАЛ АХБОРОТ МУҲИТИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ЎРНИ

Олимова Машхура Шухратовна

Фарғона давлат университети,

1-курс магистранти

Аннотация: бугунги кунда педагогика соҳасида янги илмий йўналиш пайдо бўлиши натижасида ўқитувчининг педагогик фаолиятида ҳам янги йўналиш тушунчаси пайдо бўлди. Бу тушунчалар таълим тизимини технологиялаштириш, педагогик технологияларни таълим тизимига киритиш орқали таълим тизимини ислоҳ қилиш эҳтиёжини яратди.

Калит сўзлар: таълим, педагогика, инновация, ислоҳ, технология

Бугунги кунда педагогика соҳасида янги илмий йўналиш – педагогик инновация ва таълим жараёнини янгилаш ғояларининг пайдо бўлиши натижасида ўқитувчининг педагогик фаолиятида ҳам янги йўналиш “ўқитувчининг инновацион фаолияти” тушунчаси пайдо бўлди. Бу тушунчаларнинг пайдо бўлиши ва инновацион таълим назариясининг яратилиши тўғрисида маълумот берувчи манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, бу тушунчалар таълим тизимини технологиялаштириш, педагогик технологияларни таълим тизимига киритиш орқали таълим тизимини ислоҳ қилиш, таълим самарадорлигини ошириш, шахс ижтимоийлашувини таъминлаш, бу борада муайян муваффақиятларга эришиш учун таълим жараёнида ўқувчига дўстона муносабатларни шакллантиришга уриниш натижасида вужудга келди. Ўқитувчи инновацион фаолиятининг умумий ва алоҳида жиҳатларини К.Ангеловский, Г.И.Горская, В.А.Кан-Калик, С.Л.Кузьмина, В.А.Сластенин, Л.М.Фридман каби олимлар ўзларининг илмий тадқиқот ишларида ёритиб бердилар. Мамлакатимизда педагогик инновацияни ривожлантириш муаммолари устида педагог олимлардан Ж.Йўлдошев, Н.Азизхўжаева, Б.Фарберман, У.Толипов, Ҳ.Омонов, М.Очилов, М.Жуманиёзова ва бошқалар илмий изланишлар олиб бордилар. И.Шумпатер ва Н.Кондратевлар «Инновация» тушунчасининг илк ва улкан назариячилари ҳисоблансалар, К.Ангеловский, В.А.Сластенин ва В.И.Слободчиковлар ўз илмий тадқиқотларида инновацион фаолият педагогик фаолиятнинг алоҳида шакли эканлигини исботлашга ҳаракат қилдилар ҳамда бу борада муайян натижаларга эришган олимлар деб тан олинадилар. Жумладан, В.И.Слободчиков шундай ёзади: «Аввало, инновацион фаолиятни илмий ижодиёт соҳасидаги фаолиятга ўхшатиб бўлмайди, чунки бундай ўхшатиш «Инновацион фаолият» термини маъносини саёзлаштириб юборади. Чунки ҳар қандай илмий-техникавий фаолият ўз табиатига кўра инновацион ҳисобланади. Шунинг учун инновацион фаолиятни маълум бир ижтимоий амалиёт майдонида кўриб чиқиш зарур. Бу амалиётни конкрет субъект нуқтаи назаридан ва амалдаги анъанага нисбатан жиддий ўзгаришларга олиб келадиган ҳар қандай фаолиятни инновацион деб ҳисоблаш мумкин». «Инновацион фаолият» тушунчасини таҳлил қилар эканмиз: Г.А.Мкртчяннинг бу ҳақдаги фикри диққатга сазовар: – «Педагогик тажрибасинов фаолиятининг 3 та асосий шаклини ажратиш мумкин: хусусий тажриба, тажрибасинов иши, ўқитувчининг инновацион фаолияти. Педагогик фаолиятда инновациялар қанча кўп бўлса, ўқитувчи хусусий экспериментни шунча яхши тушунади».

Инновацион фаолият-педагогнинг ўз касбини такомиллаштиришдаги мавжуд шакл ва воситаларни эгаллашга ижодий ёндашувини назарда тутати. Таълимдаги инновациялар ва инновацион педагогик фаолият ҳақида барқарор ва ҳаммага маъқул бўлган илмий тасаввурлар ва таснифлар шу пайтгача мукамал таркиб топган эмаслигини ҳам эътироф этиш лозим. Бундай ҳолатнинг асосий сабабларидан бири таълимга йўналтирилган илмий билимлар тизимлари ўртасидаги қийинчилик билан енгиб ўтиладиган узилишлардир. Яна муҳимроқ сабаб эса таълимий билим ва амалий педагогик фаолият ўртасидаги узилишдир. Ўқитувчи инновацион фаолиятнинг субъекти ва ташкилотчиси сифатида янгиликни яратиш, қўллаш ҳамда оммалаштиришда иштирок этади. У фандаги билим, анъаналардаги ўзгаришлар мазмунини ва моҳиятини таҳлил эта билиши керак.

Инновациялар долзарб, муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бир тизимда шаклланган янгича ёндашувлар. Улар ташаббуслар ва янгиликлар асосида туғилиб, таълим мазмунини ривожлантириш учун истиқболли бўлади, шунингдек, умуман таълим тизими ривожига



ижобий таъсир кўрсатади. Инновация – маълум бир фаолият майдонидаги ёки ишлаб чиқаришдаги технология, шакл ва методлар, муаммони ечиш учун янгича ёндашув ёки янги технологик жараёнини қўллаш, олдингидан анча муваффақиятга эришишга олиб келиши маълум бўлган охирги натижадир. Демак, инновацион технологияларнинг асосий негизи – бу ўқитувчи ва ўқувчининг белгиланган мақсаддан кафолатланган натижага ҳамкорликда эришишлари учун олдиндан таълим жараёнини лойиҳалашдир.

Инновацион фаолият ўқитувчининг ҳамма муваффақиятини белгиловчи асосий фаолият бўлиб, у шахснинг касбий, методик маҳоратини сифатли қайта куриш демакдир. Ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятга тайёргарлиги 3 босқичда амалга оширилади:

1. Янгиликни педагогик фаолиятда қўллашдан олдинги даврдаги ўқитувчи фаолиятини таҳлил қилиш.

2. Инновацион фаолиятнинг фаол шаклланиш даврини таҳлил қилиш.

3. Педагогик жараёнга янгилик киритилиб бўлгандан кейинги даврдаги фаолиятни таҳлил қилиш.

Хулоса қилиб айтганда, ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш вазифалари малака ошириш жараёнида амалга оширилса, амалиётда таълим-тарбия жараёнига замонавий педагогик ва ахборот технологияларини татбиқ этиш ишлари анча самарали бўлади ҳамда кутилган натижаларга олиб келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент: Фан ва технология. 2009.

2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002.

3. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-методик мажмуа.- Тошкент, 2016.



МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИ КИТОБХОНЛИККА ҚИЗИҚТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Хамдамова Манзура Зувайдиллаевна,

педагогика фанлари номзоди, доцент,
“Антик дунё” халқаро академиясининг профессори,
Тошкент вилояти ХТХҚТМОХМ Педагогика,
психология ва таълим технологиялари”
кафедрасининг доценти

Аннотация: Ушбу илмий ва услубий мақола мактаб ўқувчиларини бадиий адабиётларни мустақил ўқишга қизиқтириш ва янги технология тараққий этаётган бир даврда, китобхонликка жалб этувчи усулларни ташкил этиш ҳақида бўлиб, мақоладаги маълумотлар ва тавсиялар барча мактаб ўқитувчилари фойдаланишига мўлжалланган.

Калит сўзлар: мактаб, китобхон, болалар адабиёти, эртақ, мақол, кўшиқ, шеър, ҳикоялар ўқиш, қизиқтириш усуллари.

Аннотация: Данная научно-методическая статья посвящена поощрению школьников к самостоятельному чтению художественной литературы и в то время, когда развиваются новые технологии, создаются способы привлечения читателей, а информация и рекомендации, содержащиеся в статье, предназначены для использования всеми учителями школы.

Ключевые слова: школа, чтец, детская литература, сказки, пословицы, песни, стихи, чтение рассказов, способы заинтересовать.

Annotation: This scientific and methodological article is about encouraging school students to read fiction independently and at a time when new technology is evolving, creating ways to engage readers, and the information and recommendations in the article are intended for use by all school teachers.

Keywords: school, reader, children’s literature, fairy tales, proverbs, songs, poems, reading stories, ways of interest.

Бизнинг тараққиёт стратегиямиз соғлом авлод тарбиясига таянади ва уни ривожлантиришга қаратилган, — деган гапни, доно фикрни мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ҳам жуда кўп таъкидлаб келмоқдалар. Дарҳақиқат, юртбошимиз орзу қилганидек ёш авлодни комил инсонлар қилиб тарбиялашда катталар адабиётининг ажралмас бир қисми бўлган болалар адабиётининг ҳам аҳамияти катта. Болалар адабиёти ўз олдига келажак авлодни жисмонан бакуват, руҳан пок, фикран соғлом, иймон-этикоди бутун, билими, маънавияти юксак, мард ва жасур, ватанпарвар авлодни тарбиялашдек катта ва мураккаб вазифани қўйганлиги билан ажралиб туради.

Мамлакатимизда китобхонлик маданиятини юксалтириш ва амалий натижага эришишда бир қатор ишлар қилинганини алоҳида таъкидлаш жоиз. Ҳаёт муттасил ўзгариш ва янгиланишлар замирига қурилган. Шу маънода одамлар тафаккуридаги ўзгаришлар ҳамда ҳаётий талаб бу соҳадаги ишларни яна қайта кўриб чиқиш ва такомиллаштириш лозимлигини тақозо этмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 12 январдаги ПҚ-3271-сонли «Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида»ги фармойиши ва 2017 йил 13 сентябрдаги «Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида»ги қарори халқимиз, айниқса, ёшлар ўртасида китоб ўқишни ҳар томонлама ривожлантиришга хизмат қилмоқда. Президентимизнинг «Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини такомиллаштиришга доир чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3138 сонли қарори билан тасдиқланган «Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини такомиллаштиришга доир комплекс чора-тадбирлар дастури»нинг 45-бандида ёш авлоднинг китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш, уларнинг интеллектуал салоҳияти ва маънавий савиясини юксалтириш мақсадида ўтказилаётган «Ёш китобхон» кўрик танловлари Республика миқёсида кенг тарғиб қилинмоқда. Бундан ташқари, Президентимизнинг ташаббуси билан ушбу кўрик танловнинг бош совринига «СПАРК» автомашинаси қўйилиши ёшларнинг



танловига бўлган иштиёқини янада оширган эди. Ханузгача мактабларда «ЁШ КИТОБХОН» танловлари давом этмоқда.

Бугун инсоният илм-фансиз, маърифатсиз, ҳаёт сабоқларини умумлаштирган китобларсиз катта ютуқларни қўлга киритиш қийин эканлигини чуқурроқ англаб етди. Шунинг учун ҳам мамлакатимизда давлатимиз раҳбари илм-фанни ривожлантиришга, янги технологияларни ҳаётга, ишлаб чиқариш соҳасига татбиқ этишга, маънавиятни юксалтиришга, китобхонлик маданиятини оширишга алоҳида эътибор қаратмоқда. Бу борада республикаимизни дунёнинг энг тараққий этган давлатлари қаторига олиб чиқиш йўлидан бормоқда. Шу сабабли юртимизда илм-фанни ривожлантириш, янги технологияларни ишлаб чиқаришга жорий қилиш, китоб нашр этиш, китобхонлик маданиятини ошириш, маданий-маънавий ҳаётни юксалтиришга хизмат қиладиган ўнлаб фармонлар, қарорлар, фармойишлар, дастурлар қабул қилинди. Ана шу ҳужжатлар эндиликда илк самараларини бера бошлади.

Биринчидан, ушбу ҳужжатда китоб маҳсулотларини чоп этиш масаласига эътибор қаратилган. Бу бежиз эмас. Чунки кейинги йилларда, хусусан, XX асрнинг охирлари, XXI асрнинг бошларида юртимизда китоб чоп этиш билан боғлиқ баъзи муаммолар юзага келган эди. Бир томондан, ўша пайтлари адабиётимизда яратилган етук бадиий намуналар, аждодларимиздан мерос қолган энг яхши қўлёзмалар, илмий-маърифий асарлар нашрлари эътибордан четда қолди. Улар нашр этилса ҳам адади 2-3 минг нусхадан ошмади. Бу 10-15 миллионлик китобхонга эга халқимиз учун денгиздан томчи эди. Иккинчи томондан, баъзи бир савияси ўртамиёна ва ундан ҳам паст бўлган, “олди-қочди”лардан иборат “ижод намуналари” эса ҳомийлик ҳисобига нашрдан чиқарилди. Натижада яхши китоблар ўрнини мазмунан саёз, бачкана, бадиият талабларига жавоб бера олмайдиган нашрлар эгаллай бошлаганди. Бу салбий иллатнинг оқибатлари ҳозир ҳам озми-кўпми кўзга ташланади. Шу сабабли бугунги кунда ана шундай камчиликларни бартараф этиш, китоб маҳсулотларини чоп қилишни яхшилаш ҳаётий заруратга айланди.

Иккинчидан, мустақилликдан илгари ва истиқлолнинг дастлабки йилларида китобларни тарқатиш, китобхонларга етказиб бериш тизимида ҳам ўзига хос камчиликлар пайдо бўлди. Айтайлик, республикаимизнинг пойтахти ҳамда 4-5 та йирик шаҳарларни ҳисобга олмаганда вилоятлар ва туманлар марказларидаги китоб дўконларининг аксарияти ёпилди. Қишлоқлардаги кутубхоналар, қироатхоналар йўқ қилинди. Ҳатто айрим туманлардаги кутубхоналар ҳам фаолиятини тўхтатди. Натижада китобларни тарқатиш ва китобхонларга етказиб бериш борасида бўшлиқ юзага келди.

Халқимиз қандай китоблар, рисоалар, асарлар нашр қилинганидан тўла хабардор бўлолмади. Чоп этилган энг яхши асарлар, китоблар вилоятлар, туманлар, қишлоқларга етиб бормади. Фақат кейинги 7-8 йил ичида китобларни вилоятлар ва туманларга етказиб бериш, уларда китоблар савдоларини ташкил қилиш, китоб дўконларини очиш, кутубхоналар фаолиятини яхшилаш, уларнинг фондларини яратиш, ахборот-ресурс марказлари барпо этиш борасида баъзи ижобий ишлар қилина бошланди. Эндиликда бу ишларни янада кучайтириш талаб этилмоқда.

Учинчидан, халқимизнинг китобхонлик даражасини ошириш, маданиятини, маънавиятини юксалтириш яхши китобларни чоп этиш ва уларни жойларга етказиб бериш билан чекланиб қолмайди. Бу нашрларни китобхонлар қўлига етказиб бериш, аҳолининг китоб мутолаасини ошириш, китобхонлик маданиятини юксалтириш ҳам ана шу масаланинг узвий давоми ҳисобланади. Нашр этилган китоблар ўқилса, халқимиз ҳаётида ўз изини қолдирса мақсадга етилади. Албатта, бировга китобни мажбурлаб ўқитиб бўлмайди. Лекин жойларда китоб мутолааси билан боғлиқ анжуманлар, танловлар, мусобақалар ўтказилса, радио ва телеэкран орқали китобларни ўқиш ташкил этилса, китобхонлик борасида кўзланган мақсадга эришиш мумкин. Тўғри, бундай ишлар бугунги кунда пойтахтда ва вилоятлар марказларида бир қадар амалга оширилмоқда. Аммо бу ишлар ҳали туманлар, қишлоқлар, овуллар, маҳаллалар доирасида тўла бажарилаётгани йўқ. Китоб мутолааси жараёнида яна бир муаммони эътибордан соқит қилмаслик керак. Бу китобхонлик маданияти билан боғлиқ.

Маълумки, ҳозирги пайтда кўплаб китоблар нашр этилмоқда. Улар орасида энг яхшилари билан биргаликда бадиий ва мазмунан саёз, талабга жавоб бермайдиган асарлар ҳам бор. Айни пайтда юртимизга хорижий мамлакатларда турли йўналишларда чоп қилинган ҳар хил савиядаги китоблар ҳам кириб келмоқда. Улар орасида энг сара асарлар билан бирга бадиий, илмий, диний, мафкуравий дунёқарашимизга тўғри келмайдиганлари ҳам бор.



Бундай пайтда китобхонларимизнинг тўғри келган асарларни мутолаа қилавермасликлари ва ўқилган китоблари юзасидан ҳолислик билан мулоҳаза билдиришлари, яхши ва ўртамиёна, ундан ҳам паст асарларни ажрата олишлари учун уларнинг дидини, савиясини, бадиий тафаккурини ўстириш, яъни китобхонлик маданиятини юксалтириш талаб қилинади.

Маълумки, «Ўзбек болалар адабиёти» буйича дарслик ва ўқув қўлланмаси етарли даражада эмас. Шунингдек, олиб мактаблардаги маълум дастурасосида ўқитувчиларимиз ишланишлар олиб боришмоқда. Бугунги ХХI аср, глобал технологияларнинг ривожланиб бораётган бир даврида ўқитувчиларимиз мактаб ўқувчиларини мустақил китобхонликка қизиқишларини шакллантириш ва ривожлантириш борасида бир қанча танловларни ташкил этишмасин, бир қанча муаммоларга ҳам дуч келишмоқда. Чунки барча тавсия этиладиган адабиёт ҳам салмоқли эмас.

Болалар адабиёти ёшларни иймон-этикодли кишилар сифатида ва ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашда мустақил мамлакатимизнинг қудратли қуролидир. Факат чинакам бадиий асарларгина болаларга кучли таъсир кўрсатиб, ана шу юксак талабларга жавоб бера олади. Шу сабабли бундай китоблар педагогик ва психологик нуқтаи назардан ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Болалар китоби бу вазифани бажаришда бадиий тилга суянади. Адабий асарнинг тили унинг ғоявий мазмунини аниқ ва ифодали очиб бериш воситасидир. Яхши, аниқ, раво, образли, бой тил билан ёзилган асар ёзувчининг мақсад ва фикрларини китобхонларга тез ва осон етказди. Буни мутафаккир Алишер Навоий «Махбуб-ул қулуб» асарида тилни «кунгил хазинасининг қулфи», деб таърифлайди. Буюк шоир кишиларни қисқа ва мазмунли, чуқур мантиқ билан сўзлашга чақиради. Бу талаб, шубҳасиз, болалар ёзувчиларига ҳам тааллуқлидир.

Болалар ёзувчиси содда, раво, кизикарли ва мазмундор қилиб ёзган асарлари кичик мактаб ёшидаги болаларга тушунарли бўлади. Бунинг учун эса у халқ тилини пухта билиши лозим. Раво тил билан ёзилган бадиий асарлар ёш китобхоннинг нутқига ҳам катта таъсир кўрсатади, сўз бойлигини оширади. Болалар ёзувчиларининг энг яхши китоблари ёш авлодни ҳаётга тўғри муносабатда бўлишга ўргата олсагина, ўз-ўзидан болаларимизда китоб ўқишга бўлган интилиш ортиб боради.

Ҳаётини воқеалар мужассам бўлган эрта, ҳикоя ва маталлар, шеърини тўпламлар кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни она- диёримизга, меҳнатга муҳаббат, замонимизга садоқат руҳида тарбиялайди, уларни юртимизнинг муносиб фарзандлари бўлишга чақиради. Кичкинтойлар учун ёзиладиган ҳар қандай бадиий асар уларнинг ёш хусусиятларига, савияларига мос бўлиши, улар қалбида чуқур уй-фикрлар уйғотиши, ёрқин образлар ва юксак ғояларга бой бўлиши, уларни улкан ва порлоқ ишларга илҳомлантириши зарур. Энг муҳими мавзулар тушунарли, содда ва кизикарли тилда ёритилиши болаларни қизиқишини сундирмасдан, китобни севиб ўқишга замин яратади. Ҳар қандай китоб боланинг дунёқарашини шакллантиришга ёрдам беради, характерини тарбиялайди, илм-фанга муҳаббатини оширади. Китоб халқимизнинг ўтмиши, илғор маданиятимиз, фан ва техникамиз ютуқлари билан таништиради, фахр-ифтихор туйғуларини ўстиради.

Бугунги кунда қудратли қурол бўлган адабиётлардан кенг фойдаланмай туриб, янги ғояларни қурувчисини ҳар томонлама етук инсон қилиб тарбиялаш мумкин эмас.

Болаларга ўқиб бериладиган ва ўқиш учун тавсия этиладиган китоб, ҳар қандай асарнинг ҳажми қисқа, мазмунли содда бўлиши талаб этилади. Шунингдек, бундай китобларнинг расмлари ранг-баранг, ҳарфлари эса йирик-йирик бўлиши мақсадга мувофиқдир. Ана шундай китобларни болалар қўлидан қўймасликка ҳаракат қилишади. Бундан боланинг ёши улғайгани сайин мустақил ўқишга ва китобни танлашга ўрганиб боради.

Ўрта ва катта ёшдаги болалар ўзлари болалар китобхонлигини мустақил равишда китоб ўқиб қолмай, балки ўқиган китобларидаги қаҳрамонларнинг ҳатти-ҳаракатларини баҳолашга ўрганадилар, зарурат бўлса улар кўрсатган мардлик ва жасоратларни такрорлашга ҳозирланадилар. Бу ёшдаги болаларга халқимизнинг шонли тарихи, бугунги ҳаёти ҳақида ёзилган турли жанрдаги асарларни тавсия этиш мумкин. «Широқ», «Тўмарис» каби афсоналар билан бирга Ойбек, Ғафур Ғулом, Зафар Диёр, Қуддус Мухаммадий, Ҳаким Назир, Ш. Саъдулла, А. Обиджон ва бошқаларнинг замонавий мавзудаги энг яхши асарлари муҳим тарбиявий аҳамият касб этади. Шарқ мутафаккирларидан Ал Хоразмий, Ал Фарғоний, Аҳмад Юғнакий, Ал Бухорий, Форобий, Беруний, Ю. Х. Хожиб, Аҳмад Яссавий, А. Навоий кабиларнинг яратган асарлари болалар дунёқарашини шакллантиришда ижобий



таъсир кўрсатади. Чуқур англаб етганимиздек, болалар адабиёти ўзига хос хусусиятлари билан катталар адабиётидан фарқ қилади. Зотан, болалар ёзувчиси дунё воқеаларини болалар тасаввури, тушунчасини назарда тутиб тасвирлайди. Шу орқали кичкинтойларни олға интилишга чақиради, ҳаётни чуқур англаши ва севишига ёрдам беради.

Маълумки, оғзаки адабиёт ёзма адабиёт пайдо бўлмасдан илгари, узоқ, ўтмишдаёқ мавжуд бўлган. Бу адабиёт халқ бадиий камолоти ва маънавий бойлигининг битмас-туганмас хазинасидир. Халқ оғзаки ижоди унинг турмуш тажрибалари асосида юзага келган бўлиб, меҳнат жараёни билан чамбарчас боғланган. Халқ донолиги шу меҳнат жараёнининг турли ва ўзига хос шарт-шароитларига мувофиқ равишда болалар учун ҳам ажойиб эртаклар, қушиқлар, топишмоқлар, мақоллар яратган. Уларни болалар жуда севиб тинглайдилар ва ўқийдилар. Халқ оғзаки ижоди билан болалар мактабгача тарбия ёшидан бошлаб таниша бошлайдилар. Халқ оғзаки поэтик ижодидаги образларнинг ёрқинлиги, сўз маъноларининг аниқлиги, матннинг оҳангдорлиги, мусикийлиги каби хусусиятлар бола руҳига ором, хузур бағишлайди албатта! Яна бир нарсани алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, кичик ва ўрта ёшдаги болалар қаҳрамонлик дostonларини шавқ ва завқ билан ўқишади. Улар эртак, қўшиқ, мақол ва топишмоқларга жуди қизиқишади.

Болалар халқ оғзаки ижодида мақоллар етакчи ўринда туради. Халқ яратган ихчам, чуқур ва тугал маъноли гаплар мақол деб юритилади. Мақол халқнинг, бир неча авлодларнинг ақлу фаросати ҳамда турмуш тажрибасининг якуни, улар донишмандлигининг маҳсупидир. Мақолларда ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиб кўрган, турмушдаги ҳодисаларга ақл кўзи билан қарайдиган, соф виждонли, олижаноб меҳнат аҳлининг бирор воқеа-ҳодисадан, бирор кишидан ёки бирор ишдан чиқарган хулосаси баён қилинади. Бу хулоса бирор киши учун, кўпроқ болалар учун йўл кўрсатувчи бўлиб хизмат қилиши мумкин. Мақоллар халқнинг ақл-идроки, ижтимоий-тарихий тажрибаси, кураши ҳамда меҳнатнинг бадиий ифодаси сифатида яратилиб келинмоқда. Мақоллар чуқур маънони ифода эта билиши, ихчам, пишиқ ва пухталиги билан халқ оғзаки ижодининг бошқа турларидан фарқ қилади. Уларда меҳнаткаш халқнинг орзу-умидлари, ўзаро муносабатлари, ватанпарварлик, инсонпарварлик ҳислатлари, уй-фикрлари ўзига хос шаклда акс этган бўлади. Шу сабабдан улар болаларни тўғри, мантиқий фикрлашга, мақсадни қисқа, ихчам ва лўнда баён этишга ўргатади, уларнинг бадиий дидини оширади, тарихий ҳодисаларнинг моҳиятини яхшироқ, чуқурроқ пайқаб олишга ёрдам беради. Бундан ташқари, мақоллар она тилининг энг нозик бадиий хусусиятларини билишга ва сўз бойлигини ҳам оширишга кўмаклашувчи бир восита сифатида хизмат қилади.

Мақоллар мавзу жиҳатидан бой, хилма-хил ва рангбарангдир. Уларда она-Ватанни севиш, уни ташқи ва ички душманлардан кўз қорачигидек сақлаш, унга содиқ бўлиш ғоялари жуда ихчам, оҳангдор бир шаклда, образли ифодаларда гавдалантирилгандир. Масалан: Булбул чаманни севар, Одам — Ватанни севар. Она юртинг омон бўлса, Ранги руйинг сомон бўлмас.

Хулоса қилиб айтганда, бола тарбиясида қушиқнинг ҳам роли жуда каттадир. Қушиқ лириканинг энг қадимги шакллари билан бири бўлиб, қуйлашга мўлжалланган бир неча бандли шеърдан иборатдир. Қушиқлар қуй-оҳанг билан айтилади. Баъзан қушиқ ўйин билан бирга ижро этилади. Демак, қушиқ учун шеър ва қуй керак. Қушиқ халқ оғзаки ижодининг энг кўп тарқалган ва оммалашиб кетган жанрларидан бири ҳисобланади. Айниқса, алла қўшиғи етакчи ўринда туради. Бешиқ қушиғи — аллада кичкинтойнинг дастлабки табассуми, илк бор қўл-оёқларини кимирлатиши, имо-ишорани тушуниши қуйланади. Она эндигина оламга келган боласидан шод, хурсанд, берилиб алла айтади. Гарчанд норасида алланинг моҳияти нимадан иборат эканлигини ҳали унча ҳис этмаса-да, бари бир она алла айтаверади. Она ўз алласида атрофни қуршаб турган оламни қўшиб айтади. Бутун борлиқ кечаси ухлаши — дам олиши ва шу жумладан, кичкинтойи ҳам ухлаши зарурлигини берилиб айтади. Хуллас она алласини эшитиб вояга етган ҳар бир боланинг қўшиқ айтишга, шеър ёдлашга, ҳикоя ва эртакларни ўқишга, ёд олишга мойиллиги юқори бўлади. Бу фикрларни ота-оналарга ҳам улаштириш зарур.

Азизлар биламизки, фарзанд тарбияси бу энг масъулиятли ва мушкул амаллардан ҳисобланади. Бир болани дунёга келтириб, уни тарбиялаб, вояга етказиш инсондан сабр-тоқат, улкан меҳр-муҳаббат талаб қилади. Ҳар бир ота-она зурриёдини ўқимишли, билимдон бўлишини истади. Баъзи болалар ҳақиқий китобсевар бўлса, бошқалари эса ўқишни ёқтирмайди. Шунга қарамай, ҳар қандай болани китоб мутолаасига қизиқтириш



мумкин. Бунга эришиш учун эса, фарзандларингизга кичиклигидан китобни танитишингиз зарур. Она фарзандига туғилганидан бошлаб, болалар китобчаларини ўқиб бериши, кейинчалик ёшига мос бўлган китобларнинг мутоласига ўтиши керак бўлади. Онасининг овозини эшитиши болага роҳат бағишлайди ва шу билан бир қаторда болада китобга бўлган муҳаббат шаклланиб боради.

Болаларни қандай қилиб китобга ошно қилиш мумкин? Албатта, ўзимиз ўрнатган бўлиб! Болалар ота-онадан намуна оладилар. Агар сиз мунтазам китоб мутолаа қилсангиз, бошқа оила аъзоларингиз билан турли китоблар тўғрисида тез-тез суҳбатлашсангиз, китобдан завқ олгангизни кўрсатсангиз, фарзандингизга ўрнатган бўласиз. Китоб ўқиш аста-секин фарзандингизнинг ҳам сеvimли машғулотига айланиб боради. Болаларни китобга қизиқтириш учун уларга ёшига мос нарсани таклиф қилинг. Агар фарзандингиз бирор мультфильмни яхши кўрса, ўша фильм учун асос бўлган китобни ўқишни тавсия қилинг. Ўқиш давомида фильм билан китоб ўртасидаги фарқларга эътибор қилишини ҳам эслатиб қўйинг. Баъзи болалар бадиий адабиётларни ёқтиришмайди. Уларга турли хил энциклопедиялар қизиқроқ. Бола нимани хоҳласа, ўшани ўқишига қўйиб беринг.

Шунингдек, китоб дўконига фарзандингиз билан бирга кириш. Фарзандингиз ўзи учун китобни ўзи танласин. Бу унда мустақил фикрлашни шакллантиришга катта ёрдам беради. Агар фарзандингизда доимий равишда китоб ўқиш кўникмасини шакллантиришни истасангиз, ҳафтасига ҳеч бўлмаганда бир марта кутубхонага олиб боринг. Шошмасдан китобларни биргаликда кўриб чиқинг, биргаликда танланг, биргаликда ўқинг. Уйда ўқиш учун ҳам китоблар олинг. Бундан ташқари, китобларни солиш учун “китоблар сумкаси”ни ҳам қилиб беринг. Аҳамиятсиздек туюладиган майда-чуйда амаллар муҳим усуллар бўлиб, улар фарзандингизнинг китобхон бўлишига, бора-бора китоблар доимий ҳамроҳига айланишига ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўз.Р.Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 декабдаги “2020 — 2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисидаги 781-сонли қарори
2. Ёнг сара асарлар - www.ziyouz.uz
3. <https://regulation.gov.uz/uz/document/6248>
4. www.ziyouz.com kutubxonasi



O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH

Ro'zimova Gulora Alimbayevna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

21-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda she'riy asarlarning o'ziga xos xususiyati, uni o'rganishga tayyorgarlik, she'riy asar matni tahlili xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: she'riy asarni o'qishga tayyorgarlik, adabiy tahlil va talqin, didaktik qoida, deduksiya, induksiya, metodik sistema, pedagogik texnologiya.

She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning “*Qish to'zg'itar momiq par*” she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi. Ma'lumki, qish fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi.

Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi.

“*Qish to'zg'itar momiq par*” (Qudrat Hikmat) she'rini o'rganish jarayonida agar qor yog'magan bo'lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, “kumush” sifati qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ynaladigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning qish faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

1. She'r matni tahlilidan oldin o'quvchilarni she'rni o'qish va tushunishga tayyorlovchi, ularni fikrlashga undovchi metodik ishlar amalga oshiriladi. Bunda she'r mavzusiga bilan aloqador topishmoqlardan, afsonalardan foydalanish bir usul sifatida qo'llanishi mumkin:

Oppoqqina dasturxon

Er yuzini qoplagan. (Qor)

zostirdim ikki tovuq,

Biri issiq, biri sovuq. (Yoz, qish)

Yoki qor haqidagi afsonalardan hikoyalab berish mumkin: Qadimda osmondan un yog'ilar ekan. Odamlar o'z ehtiyojlariga yarashasini olib, uylariga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochko'z boy unlarning o'ziga keragidan ham ortig'ini qoplab o'z uyiga tashiy boshlabdi. Hatto yer yuzini chegaralab olibdi. O'z yerim degan joylardagi unlarni boshqalarga bermabdi. SHunda osmon-u quyosh va bulutlarning jahli chiqib, unlarni muzdek qorga aylantirib qo'yishibdi.

2. She'r matni ustida ishlash o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish bilan bog'lab olib boriladi.

– Birinchi to'rtlikni o'qing. Unda qaysi so'z va iboralar o'z ma'nosida qo'llanmagan? Ularning qaysi ma'noda qo'llanganini izohlashga harakat qiling.

– Quyidagi to'rtlikning qaysi misralarida jonlantirish qo'llangan? Jonlantirish deganda nimani tushunasiz?

Mahalla-ko'y ko'chada CHuvurlashib qor kurar, Esib sovuq izg'irin:

– Tezroq yur! — deb buyurar.

– Quyidagi to'rtlikning keyingi ikki misrasidagi so'zlarning ma'nosini tushuntirishga harakat qiling.

Pirpiratib ko'zini

Avtobuslar o'tadi. Qahraton qish hovurni

Mo'rkon kabi yutadi.



3. **She’rdagi qahramonlar ustida ishlash.**

– She’rda nimalar haqida gap boryapti? Ularni she’rdagi qahramonlar deyish mumkinmi? Nima uchun?

– She’rda ishtirok etgan qahramonlarni ayting (Qish, izg`irin, avtobus, osmon).

– She’rda kim g`orga qarata gapiryapti? (SHoir)

– Shoirning qorga qarata aytgan gaplarini topib o`qing.

4. **Ijodiy ish uchun topshiriq:** She’r mazmuniga mos rasm chizish.

She’rdan olgan taassurotingizdan foydalanib, *qish*, *qor*, *sovuq* haqida 4-5 gapli matn tuzing. Matningizda she’r matnidagi quyidagi so`z va iboralardan foydalaning: *momiq par*, *oq choyshab*, *qahraton qish*, *osmon elak*, *qor zarralari*, *izg`irin*, *fayz beradi*, *oq kiyimda*.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S., G`ulomova X. va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009.

2. Matchonov S., Shojalilov A., G`ulomova X. va b. O`qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo`l poligraf servis. 2020.



JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA SPORTNING O‘YINLARINING O‘RNI

Murotov Baxtiyor Kenjayevich

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

1-son maktabi Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi.

+998(97)514-00-66

Qurbondurdiyev Maqsudbek Faxriddin o‘g‘li

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

1-son maktabi Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi.

+998(99)952-11-05

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya tizimida sport o‘yinlarining o‘rni va ahamiyati haqida so‘z etilgan. Sport o‘yinlarining xususiyatlari, sport mashg‘ulotlarida sport o‘yinlaridan shug‘illanuvchilarning salomatligini yaxshilash vazifalarini hal qilishga va ularga sportni targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish masalalarini qamrab olgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiyasi, sport, sport o‘yinlari, jismoniy mashqlar, harakatli o‘yinlar, jismoniy faollik, vosita.

Insonning barkamol rivojlanishiga ko‘maklashishda sport o‘yinlarining samaradorligi, birinchidan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ikkinchidan, ularning ishtirok etadigan odamlarning tanasiga chuqur xilma-xil ta‘siri, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va hayotiy vosita ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan izohlanadi; uchinchidan, turli yoshdagi odamlar uchun tayyorlik va tayyorlik (jismoniy faollik darajasi keng miqyosda tartibga solinadi - ahamiyatsiz, sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlardan eng yuqori darajadagi sport darajasidagi jismoniy va ruhiy stressgacha); to‘rtinchidan, hissiy zaryad bilan, bu erda hamma tengdir - “ham qari, ham yosh”; beshinchidan, sport o‘yinlari - bu noyob manzara, shuning uchun ularni boshqa sport turlari bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Maktabda boshlang‘ich sinflarda sport o‘yinlari elementlari jismoniy tarbiya darslarida ochiq o‘yinlarni o‘qitish jarayonida o‘rganiladi.

Sport o‘yinlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganish 5-sinfдан boshlanadi. Jismoniy tarbiya dasturiga 3 ta o‘yin kiradi - basketbol, futbol, qo‘l to‘pi, ulardan bittasi ixtiyoriy o‘rganiladi. Sakkizinchi sinfdan boshlab dasturga voleybol ham kiritilgan. Sport o‘yinlari umumiy va kasbiy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya sohasida keng namoyish etilgan. O‘quv ishlarida bu basketbol, voleybol, qo‘l to‘pi, futbol, maktabdan tashqari ishlarida, jismoniy tarbiya, sport va dam olishda esa yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari stol tennisi, badminton va boshqalar o‘rgatiladi.

Sport o‘yinlari deyarli barcha sport turlari bo‘yicha sportchilarni umumiy jismoniy tayyorgarlik, jismoniy fazilatlarini rivojlantirish va sportchilarning motor tajribasini boyitishda samarali vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Sport o‘yinlarining asosiy xususiyatlari shundan iboratki, tashqi o‘yinlardan farqli o‘laroq, ular nafaqat mushaklarning asosiy guruhlarini, balki umuman odam uchun zarur bo‘lgan boshqa ko‘plab fazilatlarini, masalan, chaqqonlik, chidamlilik, tezlik mahorati va jismoniy kuchni rivojlantiradilar. Har bir sport o‘yini ma‘lum ko‘rsatkichlarning ishlashini yaxshilaydi. Jismoniy fazilatlardan tashqari, jismoniy bo‘lmagan fazilatlarini mantiq, mavjud vaziyatga tezkor munosabat rivojlanishiga hissa qo‘shadi, ya‘ni qisqacha aytganda, insonni aqliy rivojlantiradi. Sport o‘yinlari nostandart yoki vaziyatga oid jismoniy mashqlardir. Ushbu mashqlar “motor

harakatlarini bajarishda struktura, yo‘nalish va kuch oldindan rejalashtirilmagan, balki sport faoliyatining turli nuqtalarida yuzaga keladigan vaziyatlarga bog‘liqligi” bilan tavsiflanadi.

Dvigatel vazifalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri hal qilish asab tizimining ekstrapolyatsiya qilish, sezgirlikdan markaziy asab tizimiga kiradigan aniq ma‘lumot, asabiy jarayonlarning yuqori harakatchanligi, vosita apparati va uni qo‘llab-quvvatlovchi avtonom tizimlarning tegishli tayyorgarligi bilan bog‘liq. Barcha sport o‘yinlari aralash tezlikda tezkor kuchlar bilan ajralib turadi. Atsiklik harakatlar ustunlik qiladi. Maqsadli harakatlarning aniq bajarilishi katta ahamiyatga ega. Sportdagi mushaklarning faoliyati asosan dinamikdir. Biroq, kuch texnikasi yordamida mushaklar sezilarli, ammo qisqa muddatli statik stresslarni rivojlantiradi. Bu sport o‘yinlariga jalb qilingan sportchilarning kuchli tayyorgarligiga jiddiy talablar qo‘yadi. Sport o‘yinlaridagi tsiklik harakatlarning kuchi o‘zgaruvchan. O‘yinning ma‘lum nuqtalarida u katta, submaksimal va maksimal bo‘lishi mumkin ko‘pincha o‘yin davomida sportchining faoliyati qisqa vaqt davomida



to'xtatiladi (qoidalarini buzish, to'pni yo'qotish, bir daqiqali tanaffus va boshqalar), kuchning pasayishi va qisqa muddatli to'xtashlar bilan tiklanish jarayonlari kuchaytirilishi kerak. Ular asab tizimi jarayonlarning yuqori harakatchanligi bilan ajralib turadigan malakali sportchilarda ko'proq intensiv ravishda paydo bo'ladi. Sport o'yinlari tananing anaerobik qobiliyatiga katta talablar qo'yadi. Agar o'yin juda yuqori sur'atda davom etadigan bo'lsa (masalan, xokkey), anaerobik sharoitda ishlaydigan tana tizimlari uzoq davom etadigan stresslarga dosh berolmaydi. Ushbu qoidalar munosabati bilan futbolchilarni almashtirishga ruxsat beriladi.

Yashirin reaksiyaning umumiy vaqtining qisqarishi (5–20% ga) asosan javobni tanlashga ketadigan vaqtning qisqarishi natijasida sodir bo'ladi. Asab tizimida jarayonlarning harakatchanligi nafaqat harakat tarkibi va sur'atlarini tez o'zgartirish uchun, balki nafas olish va qon aylanish organlari faoliyatida ham tegishli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarurdir. Ushbu jismlar o'zlarining funktsiyalarini tezda ortib borayotgan quvvat bilan oshirib, pasayganda tezda tiklanishlari kerak. O'yin faoliyati tezkor, kelishilgan va aniq harakatlarni talab qiladi. Buning uchun o'yinchilar va to'pning maydondagi joylashuvi (ko'rish va eshitish organlari tomonidan), shuningdek o'z tanasining holati va vestibulyar va motorli analizatorlardan kelib chiqadigan mushaklarning holati to'g'risida o'z vaqtida va aniq ma'lumot kerak. Sport o'yinlari tayanch harakat apparatlariga aniq talablar qo'yadi. O'yinchilar mashqlari mushaklarning “portlovchi” kuchini, “sakrash” chidamliligini, tezlanish tezligini, tezlikni bardoshliligini ta'minlashi kerak. O'yinchilarning maxsus kuch-quvvat mashg'ulotlari skelet mushaklarining gipertrofiyasi bilan birga keladi. Ammo bu gipertrofiya ularning tezlik xususiyatlarini kamaytirmasligi kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi “kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “Ma'rifat” gazetasi 1998 1 aprel
2. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Qonuni “Xalq so'zi” gazetasi, 2015 yil 5 sentyabr, №174



ZAMONAVIY OILANI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUHITNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Jumamurotova Iroda Buvaxonovna

Xorazm viloyati Yangiobzor tumanidagi
7-son umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy oilani shakllantirishdan asosiy maqsad milliy urf-odatlarimizni hisobga olgan holda oilaviy hayotga tayyorlashdan va oiladagi mavjud bo'ladigan muammolar yechimini izlashdan iborat.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, milliy urf-odatlar, bilim, ishonch, ijtimoiy-psixologik muhit.

Bugungi kunda jamiyat rivojlanishida oilalarning hayot tarzi, ijtimoiy muhiti asosiy o'rinni egallay ekan, zamonaviy oilalarni shakllantirishimizdan asosiy maqsad milliy urf-odatlarimiz, umuminsoniy qadriyatlar va jamiyat taraqqiyotini hisobga olgan holda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, shuningdek oiladagi mavjud bo'ladigan muammolar yechimini izlashda ichki motivatsiyasini rivojlantirish, shuningdek, o'zi anglagan holda oila mustahkamligiga harakat qilish obyektini to'g'ri tanlash imkonini oshirishdir. Biz zamonaviy oilani shakllantirish va uni rivojlantirishda ularning ijtimoiy-psixologik fikrlashi, bu boradagi bilimlarini rivojlantirishda va oila mustahkamligiga erishishda bir qator omillarni e'tiborga olishimiz va uni mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirishga e'tibor qaratishimiz muhimdir. Oilani rivojlanishiga to'siq bo'ladigan illatlar va bu asoratlarni bartaraf qilishga qodir bo'lgan, o'zgalar fikri va irodasiga qaram bo'lmagan, o'ziga ishonchi mustahkam, milliy qadriyatlar va shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllangan shaxsni rivojlantirish. Bu borada oila savodxonligini oshirish, hamkorlikni to'g'ri tashkil qilish omillari muhim hisoblanadi. Zamonaviy oilada milliy urf-odatlar, an'analarning farzand tarbiyasidagi ahamiyati, shuningdek, ilg'or va zamonaviy bilimlar, internetdan to'g'ri foydalanish malakalari va bu ma'lumotlarning uyg'un tashkillashtirilishida tabiiy makon oila ekanligini unutmaslik, targ'ibot-tashviqot orqali ota-onalarning ijtimoiy-psixologik fikrlash tarzini rivojlantirish. Zamonaviy oila dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishda jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir shaxsni ongli tarzda o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqligini ongli tarzda idrok qilinishiga erishishdir.

Bu boradagi bilimlarni oshirishda har bir tashkilot, o'quv muassasalari va jamoat tashkilotlarining hamkorligiga asoslangan, shuningdek, har bir shaxsda o'z-o'zini anglashni rivojlantiruvchi va guruhviy jipslikni ahamiyatini ko'rsatib beruvchi ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil qilish, bu borada psixologik bilimlardan foydalanish, bu jarayonni amalga oshirishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish, uni qanday tadqiq qilinishi borasida ijtimoiy dastur ishlab chiqish masalalari zarurligi namoyon bo'lmoqda. Har bir oilaning asosiy ehtiyoji xavfsizlikka asoslanganligini inobatga olgan holda shu ehtiyojning bajarilishi omillarida shaxsning bilim saviyasi, dunyoqarashi o'rin egallashini hisobga olib, oila qadriyatlarini saqlab qolish, ma'naviy qo'rg'on rolini bajaruvchi oila an'analarni rivojlantiruvchi, sodda, har bir inson tushunishi va qabul qilishi mumkin bo'lgan oddiy zamonaviy metodlarni ilgari surish. Zamonaviy oila muhitini shakllantirishda shaxsning ichki motivatsiyasini rivojlantirish orqali oila iqtisodini tiklashda va ijtimoiy munosabatlarda faolligini ta'minlashda zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalana olish imkonini yaratish. Bu borada iqtisodni rejalashtirishda shaxsning o'ziga ishonchi, to'g'ri fikrlay olishi va ishni yakuniga qadar iroda kuchi bilan davom ettirishga tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

Biz oilalar bilan ishlar ekanmiz, ularning ijtimoiy-psixologik, tibbiy, huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlari va savodxonligini ta'minlanishida, zamonaviy oila muhitini rivojlanishida insonning o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish katta ahamiyatga egadir. Ishonch shunday oliy kuchki, bu odamning eng katta ehtiyojlaridan biridir. Chunki ehtiyojlar borasida aql hamma narsani ham tushuntirib bera olmaydi. Narsa hodisalarni unday yoki bunday holatda idrok qilinib, ishonib, tan olinadi. Ishonch tabiatimizga shunday singib ketganki, biz biror ishni uning foydali yoki zarurat ekanligiga ishonganimiz uchun qilamiz. Bizdagi ishonch bizni amalga oshirishimiz kerak bo'lgan faoliyatni olib boruvchi quvvatni boshqaruvchi kuchdir. Nima uchun ishongan barcha narsamiz samarali yakunlanmaydi, nima uchun oxiriga yetkazilmagan ishlar bor? Baxtga, farovonlikka, yaxshi iqtisodni niyat qilgan va shunga ishonib faoliyat olib borgan insonlar nima uchun hammasi muvaffaqiyatga erisha olmaydi? Bu masalani ishonchning egizagi bo'lgan shubha bilan izohlaymiz.



Biz biror bir ishni boshlasak, aqlimizni bir chetida shubha chiroqchasi yonib turadi, ya'ni qila olamanmi, bu to'g'rimikin yoki menga haqiqatni aytyaptimikin, boshqacha bo'lib qolsa nima qilaman kabi. Shubha va ishonch bir-biriga bog'langan juftlikdir. Tasavvur qilamiz siz ishonib, maqsad qilib faoliyatga kirishdingiz, shu ishdan keyin xamma narsa yaxshi bo'lishiga ishonasiz, ishonch sizga uzoqda turgan maqsadingizni yaqinlashtirib beradi. Lekin ish boshlangach o'yinga shubha aralashadi, natijada biz ko'zlagan maqsadimizdan adashishimiz yoki xato metodlar, qarorlar paydo bo'lishiga sabab bo'lamiz. Biz shu narsani yaxshi anglashimiz kerakki, hayotda erishgan va erisholmagan barcha narsalar bu bizning qilgan qarorlarimiz natijasidir. Biz oilalar bilan ishlashda ana shu motivatsiyani inobatga olishimiz, zamonaviy oilani shakllantirishda insonlar ijtimoiy-psixologik fikrlash jarayonida o'ziga bo'lgan ishonchni, javobgarlikni his qilishni, omad yoki omadsizlikka ishonib emas, faoliyatimiz samarasi o'z mas'uliyatimiz orqali amalga oshirish muhimligini, shuningdek, bu masalada oila an'analari, shaxs qadriyatlarini nechog'lik katta rol o'ynashini targ'ibot qilish orqali to'g'ri yo'naltira olishdir. Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir. Shu nuqtai nazardan, oilaviy an'analar, rasm-rusmlar va odatlar orqali bolalarimiz ongiga milliy g'oyani va istiqlof mafkurasini singdirishni ta'minlovchi psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniq bilish o'ta dolzarb va muhim vazifadir. Xalq psixologiyasida mafkuraviy ta'sirchan omillar mohiyatini bilish, yangicha rasm-rusmlar marosimlarning ahamiyatli tomonlarini kundalik turmush tarziga aylantirish yoshlar e'tiqodiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik texnologiyalarga kiradi. Ta'kidlash joizki, oila ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. XXI asr oilasi konsepsiyasi. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi-T:NISIM 2002-28 b.
2. Karimova .V. “ Oila psixologiyasi” Toshkent 2007 y
3. Bo'riyev .O. O'zbek oilasi tarixidan. – T.: O'qituvchi, 1995-128 b.



UYGA VAZIFALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MATEMATIKA FANIGA QIZIQTIRISHNING METODIK JIHATLARI.

Hotamova Gulbahor Abduvahobovna
Samarqand viloyati Toyloq tuman
29-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada matematika darslarining samaradorligini oshirishda uyga vazifalarning o‘rni. Uyga vazifalar orqali o‘quvchilarning matematika faniga qiziqishlarini oshirishning shakl, metod va vositalari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, maqsad, natija, uyga vazifa, topshiriq, mustaqil ta’lim, faoliyat.

O‘qituvchining eng asosiy vazifalardan biri, o‘quvchilarining darslik va kitob bilan ishlashga o‘rgatishdir. Bu talab o‘qitishning turli bosqichlarida, o‘quvchilarning yoshlariga qarab, turlicha bajarilishi mumkin. Ammo o‘quvchilarni kitobdan foydalanishga mumkin qadar ertaroq o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kitob bilan ishlashni quyidagi shakllarda olib borish tavsiya qilinadi:

a) O‘quvchilar o‘qish texnikasini o‘rgangandan keyin, o‘qituvchi ularni matematika darslarida masalalarning matini o‘quvchilarning kitobdan o‘qishga o‘rgata boshlaydi. Masalaning matnini o‘quvchilarning o‘zlariga o‘qitishning birinchi sinfdan boshlash kerak. Bu ish quydagicha bajariladi: o‘qituvchi butun sinf bilan dars olib borganda, bir o‘quvchini chiqarib, unga masalaning matnini o‘qishni va chiqqandan keyin yana takrorlashni taklif qiladi.[2.108] Bu vaqtda o‘qituvchi o‘quvchilarning qiynalishlarini payqab oladi, ularni hisobga oladi, va zarur yordamni beradi.

b) O‘quvchilarning darsda mustaqil ish bajargan vaqtlarida ham ayniqsa dastlabki paytlarida, topshirilgan ishni bitta-ikkita o‘quvchidan ovoz chiqarib o‘qitish va keyin o‘quvchilardan qisqacha so‘rash ishini tatbiq qilish mumkin. Bunday so‘roqlash topshiriqning o‘zlashtirish sifatini ko‘rsatadi.

v) O‘quvchilarning shu darsda o‘rganilgan qoidalarini darslikdan o‘qishi, masalan, ko‘paytiruvchilarga nol bo‘lgan songa ko‘paytirishini bir qator masala va misollar ustida o‘rganilgandan keyin o‘qituvchi o‘quvchilarga shu qoidani darslikdan o‘qib chiqishini taklif qiladi. O‘qilgan qoida shu ondayoq og‘zaki qaytariladi.

g) O‘quvchilarning darsda chiqarilgan qoidalarni yana ham yaxshiroq o‘zlashtirish uchun sinfdagi va uydagi mustaqil ishlari vaqtida masalalar to‘plamidan va darslikdan o‘qib chiqish bilangina qolmasdan, balki uni daftarlariga yozib olishni ham tavsiya qilish foydali bo‘ladi.

Matematikadan uyga berilgan vazifalar orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishga metodik jihatdan yondoshsak uyga vazifalarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.[1.69]

To‘g‘ri tashkil qilingan uy vazifalari mustaqil ishga o‘rgatadi, mas’uliyat sezish tuyg‘usini tarbiyalayda, bilim va malakalarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Uyga beriladigan vazifa mavzusini ishlab chiqishning ajralmas bir qismi bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan katta e’tibor bilan ishlab chiqishni talab etadi.

Uy vazifalarini yo malakalarni mustahkamlash uchun berilgan mashqlar tariqasida yoki darsda o‘tilgan nazariy materialni o‘zlashtirish maqsadida beriladi

Matematikadan uyga beriladigan vazifalar misollar va matnli masalalardan iborat bo‘lishi kerak. Misollar o‘qituvchining ko‘p tushintirishini talab qilmaydi, bundan tashqari, ularni sinfdan tekshirib chiqish ham oson bo‘ladi. Lekin, uy vazifalarini faqat misollar bilangina chegaralash mumkin emas.[2.98] Misollar asosan malakalarini mustahkamlash uchun, hisoblash texnikasini o‘zlashtirish uchun beriladi. Tafakkurni taraqqiy etish uchun esa masalalar kerak, shuning uchun uyda yechishga masalalar ham berish kerak. Bunday masalalarning yechilishi asta sekin qiyinlashib boradigan bo‘lishi lozim.

Avvalo sinfdan yechilganlarga o‘xshash masalalar beriladi, bu masalalarni o‘quvchilar o‘zlari mustaqil ravishda tushinib yechishlari kerak. Avval oson misollar beriladi, keyin esa yechilishi bir qancha kuch, ziyaraklik talab qiladigan, og‘irroq masalalar ham bajariladi. Nazariy masalalar darslikdan beriladi. Bundan tashqari, uy vazifalari sifatida o‘lchash ishlari (o‘lchovlarni o‘rganishda), masalan, uyning, hovlining, derazaning, eshikning, bog‘ning o‘lchovlarini aniqlash, uy polining yuzini, uyning hajmini va shunga o‘xshash ishlarni uy vazifasida berish maqsadiga



muvofigdir.[1.23]

Uy vazifalarini bergan vaqtda sinfdagi o‘quvchilarning bajara olishlari har- xil bo‘lishni esda tutish kerak. Butun sinf uchun umumiy bo‘lgan vazifalar qatorida kuchli o‘quvchilar bajaradigan (hamma o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lmagan) qo‘shimcha vazifalar ko‘rsatilishi lozim.

Qo‘shimcha vazifalarning bajarilishini nazorat qilishning ahamiyati katta. Bundagi hisobga olish o‘zlashtirishni yuksaltirishni chorasi bo‘lish jihatdangina ahamiyatli bo‘lish bilan qolmay, balki tarbiyaviy ahamiyati ham bor, bu o‘quvchilarni majburiy minimumdan ortiq ishlashga majbur etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. Toshkent. “O‘qituvchi” 2004 yil.

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G’. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Yu uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiya” 2005 yil.



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

Jabbarova Moxichexra

Samarqand viloyati Ishitxon tumani
30-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf darslarida mustaqil ishlarning o'rni yoritilgan. Mustaqil ishlar orqali o'quvchilarga tarbiya va ta'lim berishning didaktik imkoniyatlari o'rganilgan. Mustaqil ishlar asosida ta'lim- tarbiya berishning samarali vositalari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, hamkorlik, ahloqiy tarbiya, samarali ta'lim, faoliyat, integratsiya, natija.

Bilim olish jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar: darsning yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalaridan foydalanish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, o'quvchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi. Ta'lim samaradorligini orttirishda fanlar bo'yicha ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish konsepsiyasining aniq belgilanishi va unga amal qilinishi ijobiy natija beradi. Uymumiy o'rta ta'lim maktabining eng muhim maqsadi o'quvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdan iboratdir. O'quvchi vaqt o'tishi bilan maktabda olgan bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular butunlay izsiz yo'qolib ketmaydi. Olingan bilimlar, garchi o'quvchilar unutganda ham, xotirada ma'lum darajada iz qoldiradi. Ko'pincha bolalar o'zlarining amaliy faoliyatlariga bog'lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar. Ba'zan o'rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli, materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi.

O'quvchilar o'zlashtiradigan bilimlar xotirada mustahkam saqlanishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. O'qituvchi o'quv materialidagi asosiy fikrni ajratishi shart.
2. O'quv materialidagi asosiy fikr o'rganilgan masala bo'yicha o'quvchiga tanish bo'lgan g'oyaga bog'langan bo'lishi kerak.
3. Bilimlar o'quvchilarning qarashlari va e'tiqodlari tizimini o'z ichiga olishi lozim, shundagina ular bolaning boyligiga, yutug'iga aylanadi va u bilimlarni esidan chiqarmaydi.
4. O'quv materialini o'quvchining amaliy ishlari va mashqlariga bog'lab, undagi bilimlarning mustahkamligini ancha oshirish zarur.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, o'qitishning birinchi bosqichida o'qituvchining bevosita boshchiligida bajariladigan o'quv ishlaridan keng foydalaniladi, o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini kerakli ishga mohirlik bilan yo'naltirib turishi kerak. Ammo hozirgi vaqtda o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ta'sirli metod sifatida o'quvchilarning mustaqil ishlariga borgan sari ko'proq e'tibor berilmoqda. O'quvchilarning mustaqil ishlari hozirgi vaqtda o'qitishning hamma bosqichlarida, shu jumladan, yangi bilimlarni berish bosqichida ham kuzatiladi. Bu muhim hodisa hozirgi zamon ta'limining o'quvchilarning umumiy rivojlanishlariga yo'naltirilganligini yana bir karra ta'kidlaydi.

Mustaqil ish - o'quvchilarning o'qitish jarayoniga qo'shiluvchi, o'qituvchining bevosita qatnashuvisiz, maxsus ajratilgan vaqt davomida uning topshiriqlari bo'yicha bajariladigan ishdir. Bunda o'quvchilar topshiriqda qo'yilgan maqsadga erishishga o'z kuchlarini sarflaydilar, aqliy yoki jismoniy (yoki ikkalasini birgalikda) harakatlar natijasini biror ko'rinishda ifodalab, ongli ravishda intiladilar.

O'quvchilar bilan bajariladigan mustaqil ishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) didaktik maqsadlar bo'yicha. Bu ishlar o'quvchilarni yangi materialni qabul qilishga (idrok qilishga) tayyorlashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga, ilgari o'tilgan materialni takrorlashga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

b) o'quvchilar mustaqil ishlayotgan material bo'yicha: darslik bilan, didaktik material ustida, bosma asosli daftar ustida ishlash va hokazo;

v) o'quvchilardan talab qilinadigan faoliyat xarakter bo'yicha: bu nuqtai nazardan ishlarni berilgan namuna bo'yicha, berilgan qoida bo'yicha va hokazo bir- biridan farq qilinadi;



g) tashkil qilinish usuliga ko'ra: umumsinf ishi, bunda sinfning hamma o'quvchilari bitta ishning o'zini bajarishadi; guruh ishi, bunda o'quvchilarning har xil guruhlari har xil topshiriqlar ustida ishlashadi, individual ish, bunda har bir o'quvchi maxsus topshiriq ustida ishlaydi.

Matematikadan deyarli har bir darsda 2- 3 ta qisqa vaqtli mustaqil ish o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Shu vaqtning o'zida o'quvchilarni mustaqil ishlashga yetarlicha tayyorlamay turib, ularga topshiriqni bajarishda mustaqillik berish ko'pincha o'quv vaqtini isrof qilishga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darsning turli bosqichlarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarning har biri ma'lum maqsad uchun xizmat qiladi. Masalan, o'tilgan mavzular yuzasidan o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalardagi zaif tomonlarni aniqlash maqsadida tashkil qilinsa, yangi mavzuni o'rganishdan oldin shu mavzuga oid materiallar asosida uyushtiriladigan ishlar o'quvchilarni yangi o'quv materialini faol idrok etishga tayyorlaydi. Mavzu o'rganilgach, tashkil qilinadigan mustaqil ishlar bilimlarni mustahkamlashga va malaka hosil qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.S.Alixanov. Matematika o'qitish metodikasi .– T.: Cho'lpon. 2011y. 304 b.
- 2.N.Eshpulatov, A.Akmalov. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar. – T.: O'qituvchi. 2007y. 47 b.
- 3.Sh.Ne'matova Matematika fanini o'qitishning nazariy masalalari metodikasi.- T.: Taffakur, 2011y. 308 b.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000